«AGAT CREDIT» MMT MChJ
ta'sischilarining Umumiy yig'ilishining
qarori bilan

**«TASDIQLANGAN»**

2025 yil "____" _________
____-sonli bayonnoma

**«УТВЕРЖДЁН»**

решением
Общего собрания учредителей
ООО МФО «AGAT CREDIT»

протокол «___» ________2025 г.
№ ____

Yigilish raisi / Председатель собрания

LAGUTIN SERGEY VALENTINOVICH _______________

# «AGAT CREDIT» MIKROMOLIYA TASHKILOTI AKSIYADORLIK JAMIYATINING

# U S T A V I

# У С Т А В

# АКЦИОНЕРНОГО ОБЩЕСТВА МИКРОФИНАСОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ «AGAT CREDIT»

Toshkent shahri – 2025 yil

город Ташкент – 2025 год

| **M U N D A R I J A** | **С О Д Е Р Ж А Н И Е** |
|---|---|
| 1. Umumiy qoidalar | 1. Общие положения |
| 2. Jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron mazili, yuridik maqomi | 2. Наименование, местонахождение (почтовый адрес), адрес электронной почты, юридический статус Общества |
| 3. Jamiyat faoliyatining maqsadi va sohasi (asosiy yo‘nalishlari) | 3. Цель и предмет (основные направления) деятельности Общества |
| 4. Jamiyatning huquq va majburiyatlari | 4. Права и обязательства Общества |
| 5. Jamiyatning faoliyatiga doir mablag‘lar-ning manbalari | 5. Источники средств деятельности Общества |
| 6. Ustav fondi | 6. Уставный фонд |
| 7. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar | 7. Акции и иные ценные бумаги |
| 7.1. Aksiyalar | 7.1. Акции |
| 7.2. Korporativ obligatsiyalar | 7.2. Корпоративные облигации |
| 7.3. Aksiyalar va korporativ obligasiyalarni joylashtirish | 7.3. Размещение акций и корпоративных облигаций |
| 7.4. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda imtiyozli olish huquqi | 7.4. Преимущественное право на приобретение акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции |
| 7.5. Joylashtirilgan aksiyalarni Jamiyat tomonidan olish | 7.5. Приобретение Обществом размещенных акций |
| 8. Aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari | 8. Права и обязанности акционеров |
| 9. Daromadi (foyda)ni taqsimlash, dividendlarni to‘lash va zararni qoplash | 9. Распределение дохода (прибыли), выплата дивидендов и возмещение убытков |
| 10. Zaxira va boshqa fondlar | 10. Резервный фонд и иные фонды |
| 11. Jamiyatni boshqarish va Jamiyat faoliyatini nazorat qilish | 11. Управление Обществом и контроль за деятельностью Общества |
| 11.1. Aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi | 11.1. Общее собрание акционеров |
| 11.2. Kuzatuv kengashi | 11.2. Наблюдательный совет |
| 11.3. Bosh direktor | 11.3. Генеральный директор |
| 11.4. Ichki audit xizmati | 11.4. Служба внутреннего аудита |
| 11.5. Auditorlik tashkiloti | 11.5. Аудиторская организация |
| 12. Hisob va hisobot | 12. Учет и отчетность |
| 13. Hujjatlarni saqlash | 13. Хранение документов |
| 14. Jamiyat va Jamiyatning affillangan shaxslari to‘g‘risidagi axborot | 14. Информация об Обществе и аффилированных лицах Общества |
| 15. Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish | 15. Совершение крупных сделок |
| 16. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish | 16. Совершение сделок с аффилированными лицами Общества |
| 17. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish | 17. Реорганизация и ликвидация Общества |
| 18. Yakuniy qoidalar | 18. Заключительные положения |

| 1. Umumiy qoidalar | 1. Общие положения |
|---|---|
| 1.1. «AGAT CREDIT» Mikromoliya tashkiloti aksiyadorlik jamiyatiining (bundan buyon matnda Jamiyat deb yuritiladi) mazkur Ustavi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (bundan buyon matnda «Qonun» deb yuritiladi), «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida»gi (bundan buyon matnda «765-sonli Qonun» deb yuritiladi) qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. | 1.1. Устав Акционерного общества Микрофинансовой организации «AGAT CREDIT» (далее именуемое – Общество) разработан в соответствии с Гражданским кодексом Республики Узбекистан, законами Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» (далее именуемый – Закон), «О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности» (далее именуемый – Закон №765) и другими нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан. |
| 1.2. Jamiyat:<br>- Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazida 2016 yil 7 dekabrda 2009919-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan "IMKON INVEST MIKROKREDIT TASHKILOTI" mas’uliyati cheklangan jamiyatini ta’sis etish yo‘li bilan tashkil etilgan;<br>- Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazida 2018 yil 24 oktabrda 1275947-raqami bilan "MICROFIN MIKROKREDIT TASHKILOTI" mas’uliyati cheklangan jamiyati sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tgan;<br>- Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazida 2022 yil 16 iyunda 1913617-raqami bilan "MICROFIN MIKROMOLIYA TASHKILOTI" mas’uliyati cheklangan jamiyati sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tgan;<br>- Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazida 2024 yil 26 avgustda «AGAT CREDIT» mikromoliya tashkiloti mas’uliyati cheklangan jamiyati sifatida 2557114-raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. | 1.2. Общество:<br>- создано путем учреждения Общества с ограниченной ответственностью «IMKON INVEST MIKROKREDIT TASHKILOTI», зарегистрированного в Центре государстве-нных услуг города Ферганы 7 декабря 2016 года №2009919;<br>- прошло перерегистрацию в качестве Общества с ограниченной ответственностью "MICROFIN MIKROKREDIT TASHKILOTI" в Центре государственных услуг города Ферганы 24 октября 2018 года №1275947;<br>- прошло перерегистрацию в качестве Общества с ограниченной ответственностью "MICROFIN MIKROMOLIYA TASHKILOTI" в Центре государственных услуг города Ферганы 16 июня 2022 года №1913617;<br>- прошло перерегистрацию в качестве Общества с ограниченной ответственностью Микрофинансовой организации «AGAT CREDIT» в Центре государственных услуг города Ферганы 26 августа 2024 года №2557114. |
| **2. Jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili), elektron pochta manzili, yuridik maqomi** | **2. Наименование, местонахождение (почтовый адрес), адрес электронной почты, юридический статус Общества** |
| 2.1. Jamiyatning to‘liq firma nomi:<br>*davlat tilida*<br>*lotin alifbosida:*<br>*to‘liq:* **«AGAT CREDIT» Aksiyadorlik jamiyati mikromoliya tashkiloti**<br>*qisqartirilgan:* **«AGAT CREDIT» AJ MMT**<br>*davlat tilida* | 2.1. Фирменное наименование Общества:<br>*на государственном языке на основе латинской графики:*<br>*полное:* **«AGAT CREDIT» Aksiyadorlik jamiyati mikrokmoliya tashkiloti**<br>*сокращенное:* **«AGAT CREDIT» AJ MMT**<br>*на государственном языке* |

| | |
|---|---|
| *kirill alifbosida:*<br>*to'liq:* **«AGAT CREDIT» Акциядорлик жамияти микромолия ташкилоти акциядорлик жамияти**<br>qisqartirilgan: **«AGAT CREDIT» АЖ ММТ**<br>*rus tilida:*<br>*to'liq:* **Акционерное общество микрофинансовая организация «AGAT CREDIT»**<br>*qisqartirilgan:* **АО МФО «AGAT CREDIT»**<br>*ingliz tilida:*<br>*to'liq:* **«AGAT CREDIT» Joint-stock company microfinance organization**<br>*qisqartirilgan:* **«AGAT CREDIT» JSC MO** | *на основе кириллицы:*<br>*полное:* **«AGAT CREDIT» Акциядорлик жамияти микромолия ташкилоти**<br>*сокращенное:* **«AGAT CREDIT» АЖ ММТ**<br>*на русском языке:*<br>полное: **Акционерное общество микрофинансовая организация «AGAT CREDIT»**<br>*сокращенное:* **АО МФО «AGAT CREDIT»**<br>*на английском языке:*<br>*полное:* **«AGAT CREDIT» Joint-stock company microfinance organization**<br>сокращенное: **«AGAT CREDIT» JSC MO** |
| Jamiyat o'z firmasining nomidan foydalanish mutlaq huquqiga egadir. | Общество имеет исключительное право использования своего фирменного наименования. |
| 2.2. Jamiyatining joylashgan eri va pochta manzili: **O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Alpomish MFY, Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 127-A-uy. Pochta indeksi: 100077** | 2.2. Местонахождение и почтовый адрес Общества: **Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирзо Улугбекский район, МСГ Алпомиш, улица Буюк Ипак йули, дом 127-А. Почтовый индекс: 100077** |
| Jamiyatning elektron pochta manzili: **info@agatcredit.uz** | Адрес электронной почты Общества: **info@agatcredit.uz** |
| Jamiyat o'zining joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni yozma bildirish yuborish yo'li bilan, aksiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart. | Общество обязано уведомлять об изменении своего местонахождения (почтового адреса) и адреса электронной почты органы государственной регистрации юридических лиц путем направления письменного уведомления, а акционеров – путем опубликования в средствах массовой информации. |
| 2.3. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil qilingan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ldi. | 2.3. Общество создано на неопределенный срок и приобрело статус юридического лица с момента его государственной регистрации. |
| 2.4. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining Ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. | 2.4. Общество является юридическим лицом и имеет в собственности обособленное имущество, в том числе имущество, переданное ему в уставный фонд, учитываемое на его самостоятельном балансе, может от своего имени приобретать и осуществлять имущественные и личные неимущественные права, нести обязанности, быть истцом и ответчиком в суде. |

| | |
|---|---|
| 2.5. Jamiyat o‘z faoliyati natijasida olingan va xarid qilingan aksiyalarni sotib olish hisobiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmagan boshqa asoslarga ko‘ra berilgan mol-mulkning mulkdori hisoblanadi. | 2.5. Общество является собственником имущества, переданного в счет приобретения акций, полученного и приобретенного в результате своей деятельности, а также по другим основаниям, не противоречащим законодательству Республики Узбекистан. |
| 2.6. Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida Jamiyat amaldagi qonunchilikka muvofiq barcha turdagi shartnomaviy munosabatlarni amalga oshirishga haqli. | 2.6. В процессе осуществления финансово-хозяйственной деятельности Общество вправе вступать в договорные отношения всех видов в соответствии с законодательством. |
| 2.7. Jamiyat qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanish, boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo‘lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, filiallar tuzish va vakolatxonalar ochishga, uyushma va assosiasiyalarga kirishga haqlidir. | 2.7. Общество вправе осуществлять любые виды деятельности, не запрещенные законодательством, выступать учредителем или иным образом участвовать в уставных фондах (капиталах) других юридических лиц, создавать филиалы и открывать представительства, вступать в союзы и ассоциации. |
| 2.8. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan eri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. | 2.8. Общество имеет круглую печать, содержащую его полное фирменное наименование на государственном языке и указание на место его нахождения. |
| 2.9. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli. | 2.9. Общество вправе иметь штампы и бланки со своим наименованием, собственную эмблему, а также зарегистрированные в установленном порядке товарный знак и другие средства индивидуализации участников гражданского оборота, товаров, работ и услуг. |
| 2.10. Jamiyat belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida bankda hisob varaqlar ochishga haqlidir. | 2.10. Общество вправе открывать банковские счета на территории Республики Узбекистан и за ее пределами. |
| 2.11. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi. | 2.11. Общество несет ответственность по своим обязательствам всем принадлежащим ему имуществом. |
| Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o‘z zimmasiga oladi. | Акционеры не отвечают по обязательствам Общества и несут риск убытков, связанных с его деятельностью, в пределах стоимости принадлежащих им акций. |

| | |
|---|---|
| Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. | Общество не отвечает по обязательствам своих акционеров. |
| Davlat va uning organlari Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi. | Государство и его органы не несут ответственности по обязательствам Общества, равно как и Общество не отвечает по обязательствам государства и его органов. |
| **3. Jamiyat faoliyatining maqsadi va sohasi (asosiy yo‘nalishlari)** | **3. Цель и предмет (основные направления) деятельности Общества** |
| 3.1. Jamiyat faoliyatining maqsadi o‘z faoliyati natijasidan foyda olishdir. | 3.1. Целью деятельности Общества является извлечение прибыли. |
| 3.2. O‘z faoliyat maqsadiga erishish uchun Jamiyat quyidagi mikromoliyaviy xizmatlarni amalga oshiradi:<br>- mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirish;<br>- to‘lov agenti (subagenti) yoki banklarning, sug‘urta va boshqa moliya tashkilotlarining agenti vazifalarini amalga oshirish;<br>- o‘zi amalga oshirayotgan faoliyat bilan bog‘liq maslahat va axborot xizmatlarini ko‘rsatish;<br>- tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit summasidan oshadigan miqdorda kreditlar, lizing, kafolatlar berishga, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatish;<br>- yuridik shaxslarga chet el valyutasida mikrokredit berish va 765-son Qonunning 4-moddasi beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlarni chet el valyutasida ko‘rsatish;<br>- to‘lov tashkiloti faoliyatini mazkur tashkilotlar uchun belgilangan tartibda amalga oshirish. | 3.2. Для достижения цели своей деятельности Общества предоставляет следующие микрофинансовые услуги:<br>- осуществлять микрофинансовую деятельность;<br>- осуществлять функции платежного агента (субагента) или агента банков, страховых и иных финансовых организаций;<br>- оказывать консультационные и информационные услуги, связанные с осуществляемой ими деятельностью;<br>- предоставлять субъектам предпринимательства кредиты, лизинг, гарантии, оказывать услуги по финансированию под уступку денежного требования (факторинг) и услуги исламского финансирования в размере, превышающем сумму микрокредита;<br>- предоставлять микрокредит в иностранной валюте и оказывать финансовые услуги, указанные в абзаце пятом, статьи 4, Закона №765, юридическим лицам в иностранной валюте;<br>- осуществлять деятельность платежной организации в порядке, установленном для данных организаций. |
| 3.3. Jamiyat quyidagilarga haqli emas:<br>- bevosita ishlab chiqarish, sug‘urta, shuningdek savdo faoliyatini amalga oshirishga, bundan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar mustasno va «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunda nazarda tutilmagan | 3.3. Общество не вправе:<br>- непосредственно осуществлять производственную, страховую, а также торговую деятельность, за исключением услуги исламского финансирования, и иную деятельность, не предусмотренную Законом «О небанковских кредитных организациях и |

| | |
|---|---|
| boshqa faoliyatni amalga oshirishga;<br>- jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlarni (depozitlarni) jalb etishga;<br>- jismoniy shaxs bo‘lgan aksiyadorlardan Ustav fondiga kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki baravaridan oshadigan miqdorda qarz mablag‘larini jalb etishga, bundan obligatsiyalar shaklidagi qarz mablag‘larini jalb etish mustasno. | микрофинансовой деятельности»;<br>- привлекать вклады (депозиты) от физических и юридических лиц;<br>- привлекать займы от акционеров - физических лиц в размере, превышающем двукратную сумму вклада в Уставный фонд или номинальной стоимости акций, находящихся у них в собственности, за исключением привлечения займов в форме облигаций. |
| 3.4. Jamiyatining faoliyati u haqidagi ma’lumotlarni mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar reyestriga kiritish vositasida hisob ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi. | 3.4. Деятельность Общества осуществляется после прохождения учетной регистрации, проводимой посредством внесения сведений о ней в реестр организаций, осуществляющих деятельность микрофинансовой организации. |
| **4. Jamiyatning huquq va majburiyatlari** | **4. Права и обязательства Общества** |
| 4.1. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega:<br>- shartnomaga muvofiq majburiyatlarning qarz oluvchi tomonidan bajarilishini ta'minlash sharti asosida yoki shunday shartsiz mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish;<br>- buyurtma beruvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni asoslantirilgan holda rad etish;<br>- mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatish va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni buyurtma beruvchidan so‘rab olish;<br>- to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmagan yoxud maqsadli mikromoliyadan belgilangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda, majburiyatlarning qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajaralishini talab qilish;<br>- maslahat va axborot xizmatlarini ko‘rsatishga;<br>- Jamiyatning qarz oluvchilari tomonidan majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun shartnomaga muvofiq neustoyka (penya, jarima) miqdorini belgilashga;<br>- mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish uchun «Nobank kredit tashkilotlari va | 4.1. Общество имеет следующие права:<br>- оказание микрофинансовых услуг на основании условия обеспечения исполнения заемщиком обязательств в соответствии с договором или без такого условия;<br>- обоснованный отказ в предоставлении микрофинансовых услуг клиенту;<br>- запросить у клиента необходимые документы для оказания микрофинансовых услуг и исполнения обязательств по договору;<br>- в случае несвоевременной оплаты или нецелевого использования микрофинансирования требовать от заемщика исполнения обязательств досрочно;<br>- оказывать консультационные и информационные услуги;<br>- определять размер неустойки (пени, штрафа) в соответствии с договором за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательств заемщиками Общества;<br>- имеет право привлекать средства в соответствии с Законом «О небанковских кредитных организациях и финансовой деятельности» для оказания микрофинансовых услуг; |

| | |
|---|---|
| mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq mablag‘lar jalb etishga haqli;<br>- Jamiyat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. | - Общество может иметь иные права в соответствии с законодательством. |
| 4.2. Jamiyat:<br>- buyurtma beruvchining huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan mikromoliyaviy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha harajatlar, shuningdek ko‘rsatiladigan mikromoliyaviy xizmat bo‘yicha foiz stavkasi to‘g‘risida buyurtma beruvchiga ishonchli hamda to‘liq axborotni ma'lum qilishi;<br>- shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishi;<br>- shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararlarning o‘rnini qarz oluvchiga qoplashi shart;<br>- belgilangan eng kam miqdordan past bo‘lmagan Ustav fondiga ega bo‘lish;<br>- moliyaviy va kassa operasiyalari o‘tkazish qoidalariga, shuningdek belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilishi;<br>- Jamiyat qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. | 4.2. Общество обязуется:<br>- предоставлять клиенту достоверную и полную информацию о правах и обязанностях клиента, включая все расходы, связанные с оказанием микрофинансовых услуг, а также процентную ставку за предоставляемую микрофинансовую услугу;<br>- оказывать микрофинансовые услуги в соответствии с условиями, указанными в договоре;<br>- возместить заемщику убытки, причиненные в результате неисполнения или ненадлежащего исполнения обязательств по договору;<br>- иметь Уставный фонд не ниже установленного минимального размера;<br>- соблюдать правила финансовых и кассовых операций, а также установленных экономических норм;<br>- Общество может иметь иные права и иметь иные обязанности в соответствии с нормативно-правовыми документами или договором. |
| **5. Jamiyatning faoliyatiga doir mablag‘larning manbalari** | **5. Источники средств деятельности Общества** |
| 5.1.Jamiyatning o‘z mablag‘lari, banklarning kreditlari, grantlar, shuningdek o‘z aksiyadorlaridan jalb etilgan qarz mablag‘lari Jamiyat faoliyatiga doir mablag‘larning manbalaridir. | 5.1. Источниками средств деятельности Общества являются их собственные средства, кредиты банков, гранты, а также заемные средства, привлеченные от своих акционеров. |
| 5.2. Jamiyat «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 26-moddasida belgilangan prudensial normativlarga rioya etgan taqdirda, Jamiyat Ustavining 5.1-bandida ko‘rsatilgan mablag‘lardan tashqari quyidagi mablag‘lar hisobidan amalga oshirishga haqli:<br>- korporativ obligatsiyalarni joylashtirishdan | 5.2. Общество при соблюдении пруденциальных нормативов, установленных статьей 26 Закона «О небанковских кредитных организациях и финансовой деятельности», помимо средств, указанных в пункте 5.1. Устава Общества, вправе осуществлять деятельность за счет:<br>- средств от размещения корпоративных |

| | |
|---|---|
| olingan mablag‘lar;<br>- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining hamda davlat jamg‘armalarining mablag‘lari;<br>- xalqaro moliya institutlarining, chet el hukumat moliya tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining qarz mablag‘lari;<br>- yuridik shaxslardan, shu jumladan chet el yuridik shaxslaridan olingan qarz mablag‘lari;<br>- islomiy moliyalashtirishga muvofiq bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishdan olingan mablag‘lar. | облигаций;<br>- средств Государственного бюджета Республики Узбекистан и государственных фондов;<br>- займов международных финансовых институтов, иностранных правительственных финансовых организаций, негосударствен-ных некоммерческих организаций, в том числе иностранных;<br>- займов юридических лиц, в том числе иностранных;<br>- средств от размещения ценных бумаг, соответствующих исламскому финанси-рованию. |
| **6. Ustav fondi** | **6. Уставный фонд** |
| 6.1. Jamiyatning Ustav fondi aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi hamda Jamiyat mol-mulkining Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi. | 6.1. Уставный фонд Общества составляется из номинальной стоимости акций Общества, приобретенных акционерами, и определяет минимальный размер имущества Общества, гарантирующего интересы его кредиторов. |
| 6.2. Jamiyatning Ustav fondi **73 715 686 004** (Etmish uch milliard etti yuz o’n besh million olti yuz sakson olti ming to‘rt) so‘mni tashkil qiladi hamda nominal qiymati **1** (bir) so’m bo’lgan **73 715 686 004** (Etmish uch milliard etti yuz o’n besh million olti yuz sakson olti ming to‘rt) dona oddiy egasi yozilgan hujjatsiz aksiyadorlar olgan aksiyalarga (joylashtirilgan aksiyalarga) bo‘lingan. | 6.2. Уставный фонд Общества составляет **73 715 686 004** (Семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сум и разделен на **x** (Семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) штуки простые именные бездокументарные акции, приобретенные акционерами (размещенные акции), номинальной стоимостью **1** (один) сум. |
| 6.3. Jamiyatning Ustav fondi:<br>- qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin;<br>- aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin. | 6.3. Уставный фонд Общества может быть:<br>- увеличен путем размещения дополнитель-ных акций;<br>- уменьшен путем уменьшения номинальной стоимости акций или сокращения их общего количества, в том числе путем приобретения части акций Обществом с последующим их аннулированием. |
| 6.4. Jamiyatning Ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish | 6.4. Решения об увеличении Уставного фонда Общества путем размещения дополнитель- |

| | |
|---|---|
| to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. | ных акций и о внесении соответствующих изменений в Устав Общества принимаются Наблюдательным советом Общества. |
| Jamiyatni Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir. | Решением об увеличении Уставного фонда Общества является решение о выпуске дополнительных акций, принятое Наблюдательным советом. |
| 6.5. Jamiyatning Ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish jalb qilingan investisiyalar, jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. | 6.5. Увеличение Уставного фонда Общества путем размещения дополнительных акций может осуществляться за счет привлеченных инвестиций, собственного капитала Общества и начисленных дивидендов в порядке, установленном законодательством. |
| 6.6. Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. | 6.6. Решения об уменьшении Уставного фонда Общества и о внесении соответствующих изменений в Устав Общества принимаются Общим собранием акционеров. |
| Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi. | Принимая решение об уменьшении Уставного фонда Общества, Общее собрание акционеров указывает причины уменьшения Уставного фонда и устанавливает порядок его уменьшения. |
| **7. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar** | **7. Акции и иные ценные бумаги** |
| 7.1. Jamiyat qonunchilik va mazkur Ustaviga muvofiq aksiyalar, korporativ obligasiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli. | 7.1. Общество вправе в соответствии с законодательством и настоящим Уставом выпускать и размещать акции, корпоративные облигации и иные ценные бумаги. |
| **7.1. Aksiyalar** | **7.1. Акции** |
| 7.1.1. Jamiyat chiqarilgan va joylashtirilgan aksiyalari quyidagilardan iborat:<br>Jamiyatning aksiyalar nominal qiymati **1** (bir) so'mdan bo'lgan **73 715 686 004** (Etmish uch milliard etti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) so'mlik **73 715 686 004** (Etmish uch milliard etti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) dona oddiy egasiining nomi yozilgan xujjatsiz aksiyalarni tashkil topadi. | 7.1.1. Обществом выпущены и размещены нижеследующие акции:<br>простые именные бездокументарные акции в количестве **73 715 686 004** (Семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) штук номинальной стоимостью **1** (один) сум на общую сумму **73 715 686 004** (Семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сума. |
| 7.1.2. Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish bilan bog'liq Jamiyat tomonidan aksiyalar chiqarilishi va joylashtirish Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. | 7.1.2. Выпуск акций, связанный с увеличением уставного фонда Общества осуществляется по решению Наблюдательного совета. |
| 7.1.3. Qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan Jamiyatning Ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina Jamiyat tomonidan | 7.1.3. Дополнительные акции могут быть размещены Обществом только в пределах количества объявленных акций, определен- |

| | |
|---|---|
| joylashtirilishi mumkin. Aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish faqat Jamiyatning ilgari joylashtirilgan barcha aksiyalari to‘liq to‘langandan keyingina amalga oshirilishi mumkin. | ного Уставом Общества. Дополнительный выпуск акций может осуществляться лишь после полной оплаты всех ранее размещенных эмитентом акций. |
| Jamiyatning Ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorida (qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risida qarori) joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilanadi. | Решением об увеличении Уставного фонда Общества путем размещения дополнительных акций (решение о дополнительном выпуске акций) должны быть определены количество размещаемых дополнительных простых акций и привилегированных акций, сроки и условия их размещения. |
| 7.1.4. Jamiyatning oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligasiyalarga va boshqa qimmatli qog‘ozlarga ayirboshlashga yo‘l qo‘yilmaydi. | 7.1.4. Конвертация простых акций в привилегированные акции, корпоративные облигации и иные ценные бумаги не допускается. |
| 7.1.5. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – aksiyador deb e'tirof etiladi. | 7.1.5. Владельцем акции – акционером признается юридическое или физическое лицо, которому акции принадлежат на праве собственности либо ином вещном праве. |
| 7.1.6. Aksiya bo‘linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo‘lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o‘zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi. | 7.1.6. Акция неделима. Если акция принадлежит на праве общей собственности нескольким лицам, все они признаются одним акционером и пользуются правами, удостоверенными акцией, через своего общего представителя. |
| 7.1.7. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo‘lgan hajmdagi huquqlarni beradi. | 7.1.7. Акция одного типа предоставляет каждому акционеру, владеющему ею, одинаковый с другими владельцами акций данного типа объем прав. |
| 7.1.8. Jamiyatning oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo‘lib, ular o‘z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. | 7.1.8. Простые акции являются голосую-щими, дающими права их владельцу на получение дивидендов, участие в управлении Обществом. |
| **7.2. Korporativ obligasiyalar** | **7.2. Корпоративные облигации** |
| 7.2.1. Jamiyat tomonidan korporativ obliga-siyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligasiyalarni, chiqarilishi Kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi. | 7.2.1. Выпуск корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции, осуществляется по решению Наблюдательного совета. |
| 7.2.2. Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligasiyalarni ularni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish sanasidagi o‘z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli. | 7.2.2. Общество вправе выпускать обеспеченные имуществом корпоративные облигации в пределах размера собственного капитала на дату принятия решения об их выпуске. |
| 7.2.3. Ustav fondining shakllanganiga qadar, shuningdek, uni to‘ldirish yoki Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq zararlarni qoplash uchun korporativ obligasiyalar chiqarishga yo‘l qo‘yilmaydi. | 7.2.3. Не допускается выпуск облигаций до формирования Уставного фонда Общества, а также для его пополнения или покрытия убытков, связанных с финансово-хозяйственной деятельностью Общества. |

| | |
|---|---|
| 7.2.4. Korporativ obligasiyalar ularning egalariga Jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. | 7.2.4. Корпоративные облигации не дают их владельцам права на участие в управлении Обществом. |
| 7.2.5. Korporativ obligasiya uning olingan vaqtidan qat'i nazar, bir chiqarilish ichida huquqlarni amalga oshirishda teng hajmlar va muddatlarga ega. | 7.2.5. Корпоративная облигация имеет равные объем и сроки осуществления прав внутри одного выпуска вне зависимости от времени ее приобретения. |
| **7.3. Aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish** | **7.3. Размещение акций и корпоративных облигаций** |
| 7.3.1. Jamiyat tomonidan aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin amaldagi qonunchilikka muvofiq oshiriladi. | 7.3.1. Размещение ценных бумаг Обществом осуществляется после государственной регистрации выпуска ценных бумаг в соответствии с действующим законодательством. |
| 7.3.2. Jamiyat o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo‘li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o‘tkazishga haqli. | 7.3.2. Общество вправе проводить открытую подписку на выпускаемые им акции путем публичного размещения с учетом требований законодательства. |
| Jamiyat o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo‘li bilan yopiq obuna o‘tkazishga haqli, yopiq obuna o‘tkazish imkoniyati qonun hujjatlarida va mazkur Ustavida cheklab qo‘yilgan hollar bundan mustasno. | Общество вправе проводить закрытую подписку на выпускаемые им акции путем частного размещения, за исключением случаев, когда возможность проведения закрытой подписки ограничена законодательством и настоящим Уставом. |
| 7.3.3. Qimmatli qog‘ozlar ochiq obuna yo‘li bilan joylashtirilganda Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish boshlanishiga kamida ikki hafta qolganida, quyidagi axborotni oshkor etiladi:<br>- qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasining matni bilan tanishib chiqish joyi va tartibi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni;<br>- Jamiyatning to‘liq va qisqartirilgan nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar, davlat statistikasi va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro‘yxatdan o‘tkazish va identifikasiya raqamlari;<br>- faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat) turlari;<br>- mustaqil reyting bahosi, agar uning shunday bahosi bo‘lsa, tegishli izohlari bilan;<br>- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga muvofiq qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish shartlari. | 7.3.3. В случае размещения ценных бумаг путем открытой подписки Общество не менее чем за две недели до начала размещения ценных бумаг раскрывает в установленном законодательством порядке нижеуказанную информацию:<br>- сведения о месте и порядке ознакомления с текстом проспекта эмиссии ценных бумаг;<br>- полное и сокращенное наименование Общества, его местонахождение (почтовый адрес), банковские реквизиты, регистрационные и идентификационные номера, присвоенные органами, осуществляющими государственную регистрацию юридических лиц, органами государственной статистики и налоговой службы;<br>- основные направления деятельности и виды производимой продукции (услуг);<br>- независимую рейтинговую оценку с соответствующими пояснениями – при ее наличии;<br>- условия выпуска и размещения ценных бумаг в соответствии с решением о выпуске ценных бумаг. |
| 7.3.4. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolarida o‘tkaziladi. | 7.3.4. Открытая подписка на акции Общества проводится исключительно на организованных торгах ценными бумагами. |

| | |
|---|---|
| 7.3.5. Tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolarida aksiyalar va boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda ularning chiqarilishi, joylashtirish hajmidan qat'i nazar, amalga oshgan deb e'tirof etiladi. | 7.3.5. В случае публичного размещения акций и иных эмиссионных ценных бумаг на организованных торгах ценных бумаг их выпуск признается состоявшимся вне зависимости от объема размещения. |
| 7.3.6. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxi Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. | 7.3.6. При принятии решения о размещении акций, в том числе среди акционеров, цена размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций устанавливается Наблюдательным советом исходя из конъюнктуры цен, складывающихся на площадках организаторов торгов ценными бумагами. |
| 7.3.7. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanganidan kam bo‘lmagan narx bo‘yicha amalga oshiriladi. | 7.3.7. Оплата дополнительных акций и иных ценных бумаг Общества при их размещении производится по цене, не ниже определенной в решении об их выпуске. |
| 7.3.8. Jamiyatning Ustav fondi ko‘paytirilayotganda Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga uning o‘z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo‘shimcha aksiyalar bilan to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to‘langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi. | 7.3.8. В случае оплаты дополнительных акций Общества при увеличении Уставного фонда Общества за счет его собственного капитала, а также дивидендов, по которым принято решение о выплате их дополнительными акциями, размещение таких акций производится по номинальной стоимости акций Общества. |
| 7.3.9. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish chog‘ida ularga haq to‘lash pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Jamiyatni qo‘shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga haq to‘lash ularni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilab qo‘yiladi. | 7.3.9. При размещении акций и иных ценных бумаг Общества их оплата осуществляется денежными и другими средствами платежа, имуществом, а также правами (в том числе имущественными), имеющими денежную оценку. Порядок оплаты дополнительных акций и иных ценных бумаг определяется решением об их выпуске. |
| 7.3.10. Jamiyat aksiyalarini to‘lash hisobiga kiritilayotgan mol-mulkning pul bahosini belgilashning tashkil etilishi Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Agar Jamiyatning puldan o‘zga vositalar bilan haqi to‘lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan ko‘pni tashkil etsa, Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur. | 7.3.10. Организация установления денежной оценки имущества, вносимого в оплату акций и иных ценных бумаг Общества, производится Наблюдательным советом. Если номинальная стоимость оплачиваемых не денежными средствами акций и иных ценных бумаг Общества составляет более двухсоткратного размера установленной законодательством базовой расчетной величины, то необходима денежная оценка оценочной организацией имущества, вносимого в оплату акций и иных ценных бумаг Общества. |

| | |
|---|---|
| 7.3.11. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to‘lanishi lozim. | 7.3.11. Дополнительные акции Общества должны быть оплачены в течение срока размещения, указанного в решении о выпуске этих акций. |
| 7.3.12. Jamiyat tomonidan Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalarini va boshqa emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. | 7.3.12. Срок размещения Обществом дополнительных акций и иных эмиссионных ценных бумаг Общества не должен превышать одного года с момента государственной регистрации их выпуска. |
| Jamiyatning joylashtirilmagan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari ushbu bandining ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi kerak. | По истечении срока, указанного в настоящем пункте, неразмещенные акции и иные ценные бумаги Общества подлежат аннулированию в установленном законодательством порядке. |
| 7.3.13. Jamiyat ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish muddati o‘tgan kundan keyin qonunchilikda belgilangan muddatda, agar barcha qimmatli qog‘ozlar ushbu muddat o‘tishidan oldin joylashtirilgan bo‘lsa – ushbu chiqarishdagi so‘nggi qimmatli qog‘ozni joylashtirish kunidan keyin qonunchilikda belgilangan muddatda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnomani taqdim etadi. | 7.3.13. Общество не позднее срока, предусмотренного законодательством, после дня истечения срока размещения ценных бумаг, указанного в зарегистрированном решении о выпуске ценных бумаг, а в случае, если все ценные бумаги были размещены до истечения этого срока, - не позднее срока, предусмотренного законодательством, после дня размещения последней ценной бумаги этого выпуска, представляет в регистрирующий орган уведомление об итогах выпуска ценных бумаг. |
| **7.4. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda imtiyozli olish huquqi** | **7.4. Преимущественное право на приобретение акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции** |
| 7.4.1. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirbosh-lanadigan, haqi pul mablag‘lari bilan to‘lanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega. | 7.4.1. При размещении Обществом акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, оплачиваемых денежными средствами, акционеры – владельцы голосующих акций имеют преимущественное право на их приобретение. Акционер имеет преимущественное право приобретения акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции (далее – преимущественное право), в количестве, пропорционально количеству принадлежащих ему акций этого типа. |
| 7.4.2. Imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslar-ning ro‘yxati qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi | 7.4.2. Список лиц, имеющих преиму-щественное право, составляется на основании данных реестра акционеров |

| | |
|---|---|
| Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi. | Общества на дату принятия решения о выпуске акций. |
| 7.4.3. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin. | 7.4.3. В случае осуществления преимущест-венного права акционеры могут приобрести только целое количество акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции. |
| 7.4.4. Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning chiqarilishi davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan sanadan e'tiboran oʻn kun ichida ommaviy axborot vositalarida va Jamiyatning o'z korporativ veb-saytida e'lon qilish orqali oʻzining imtiyozli huquqqa ega boʻlgan aksiyadorlariga aksiyalarni yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni mazkur aksiyadorlarda mavjud boʻlgan aksiyalar soniga mutanosib ravishda teng shartlarda, qimmatli qogʻozlarni chiqarish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan joylashtirish narxi boʻyicha olishni taklif etishi shart. | 7.4.4. Общество обязано в течение десяти дней с даты государственной регистрации выпуска акций или эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, посредством публикации в средствах массовой информации и на корпоративном веб-сайте Общества предложить своим акционерам, имеющим преимущественное право, приобрести акции или эмиссионные ценные бумаги, конвертируемые в акции, на равных условиях пропорционально количеству имеющихся у них акций по цене размещения, установленной Наблюдательным советом, принявшим решение о выпуске ценных бумаг. |
| Bildirish matnida joylashtirilayotgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning soni, ularni joylashtirish narxi, har bir aksiyador olishga haqli boʻlgan aksiyalarning va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning sonini aniqlash tartibi, aksiyadorlarning bu huquqi amal qiladigan muddat va uni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi ma'lumotlar boʻlishi lozim. | Текст уведомления должен содержать сведения о количестве размещаемых акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, цене их размещения, порядке определения количества акций и эмиссионных ценных бумаг, конвертируемых в акции, которые вправе приобрести каждый акционер, о сроке действия и порядке осуществления этого права акционеров. |
| 7.4.5. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran oʻn kundan kam va oʻttiz kundan koʻp boʻlishi mumkin emas. | 7.4.5. Срок действия преимущественного права не может быть менее десяти и более тридцати дней с момента опубликования уведомления. |
| 7.4.6. Imtiyozli huquqqa ega boʻlgan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni olishi toʻgʻrisida oʻzining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan eri), oʻzi oladigan emissiyaviy qimmatli qogʻozlarning soni | 7.4.6. Акционер, имеющий преиму-щественное право, вправе полностью или частично осуществить свое преимуще-ственное право путем направления Обществу заявления в письменной форме о приобретении акций и ценных бумаг, |

| | |
|---|---|
| ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida jamiyatga taqdim etilishi kerak. | конвертируемых в акции, содержащего имя (наименование) и место жительства (место нахождения) акционера, количество приобретаемых им эмиссионных ценных бумаг, и документа об оплате. Такое заявление должно быть подано Обществу в течение срока действия данного преимущественного права. |
| 7.4.7. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati, agar bu muddat o'tguniga qadar Jamiyatning barcha aksiyadorlaridan imtiyozli huquqdan foydalanish to'g'risida yoki undan foydalanishdan voz kechish haqida yozma ravishda arizalar olingan bo'lsa, tugaydi. | 7.4.7. Срок действия преимущественного права прекращается, если до его истечения от всех акционеров Общества получены письменные заявления об использовании или отказе от использования преимущественного права. |
| 7.4.8. Jamiyat imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaguniga qadar aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ularni olish bo'yicha imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas. | 7.4.8. Общество не вправе до окончания срока действия преимущественного права размещать акции и эмиссионные ценные бумаги, конвертируемые в акции, лицам, не имеющим преимущественного права их приобретения. |
| 7.4.9. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati tugaganidan keyin qolgan aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan tartibda Jamiyat tomonidan realizasiya qilinadi. | 7.4.9. Оставшиеся после окончания срока действия преимущественного права акции и эмиссионные ценные бумаги, конвертируемые в акции, реализуются Обществом в порядке, определенном в решении об их выпуске. |
| 7.4.10. Imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi. | 7.4.10. Уступка преимущественного права не допускается. |
| **7.5. Joylashtirilgan aksiyalarni Jamiyat tomonidan olish** | **7.5. Приобретение Обществом размещенных акций** |
| 7.5.1. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Jamiyat Ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli. | 7.5.1. Общество вправе приобретать размещенные им акции по решению Общего собрания акционеров об уменьшении Уставного фонда Общества путем приобретения части размещенных акций и сокращения их общего количества, а также по решению Наблюдательного совета в целях их последующей перепродажи в установленном порядке. |
| 7.5.2. Agar muomalada qolgan aksiyalarning nominal qiymati Jamiyat Ustav fondining qonunchilikda nazarda tutilgan eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularning bir qismini olish yo'li bilan Jamiyatning Ustav fondini | 7.5.2. Общество не вправе принимать решение об уменьшении Уставного фонда Общества путем приобретения части размещенных акций в целях сокращения их общего количества, если номинальная стоимость акций, оставшихся в обращении, станет ниже минимального размера |

| | |
|---|---|
| kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli emas. | уставного фонда Общества, предусмотренного законодательством. |
| 7.5.3. Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish maqsadida ularni olish yo‘li bilan Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to‘g‘risida qabul qilingan qarori asosida Jamiyat tomonidan olingan aksiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi. | 7.5.3. Акции, приобретенные Обществом на основании принятого Общим собранием акционеров решения об уменьшении Уставного фонда Общества путем приобретения акций в целях сокращения их общего количества, аннулируются в установленном законодательством порядке. |
| 7.5.4. Aksiyalarni olish to‘g‘risidagi qarorda olinadigan aksiyalarning turlari, Jamiyat oladigan har bir turdagi aksiyalarning soni, aksiyalarni olish narxi, aksiyalar haqini to‘lash shakli va muddati, shuningdek aksiyalar qancha muddatda olinishi belgilab qo‘yilishi kerak. | 7.5.4. Решением о приобретении акций должны быть определены типы приобретаемых акций, количество приобретаемых Обществом акций каждого типа, цена приобретения, форма и срок оплаты, а также срок, в течение которого приобретаются акции. |
| 7.5.5. Aksiyalarni olish vaqtida ularga haq to‘lash pul mablag‘lari bilan amalga oshiriladi. Aksiyalarni olish muddati aksiyalarni olish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi, bu muddat o‘n kundan kam bo‘lmasligi kerak. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi. | 7.5.5. Оплата акций при их приобретении осуществляется денежными средствами. Срок, в течение которого приобретаются акции, устанавливается решением о приобретении акций, который не может быть менее десяти дней. Цена приобретения Обществом простых акций определяется в соответствии с их рыночной стоимостью. |
| 7.5.6. Qaysi muayyan turdagi aksiyalarni olish to‘g‘risida qaror qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha aksiyalarning egasi bo‘lgan har bir aksiyador mazkur aksiyalarni sotishga haqli, Jamiyat esa ularni olishi shart. Agar Jamiyat tomonidan olinishi to‘g‘risida aksiyadorlarning arizalari tushgan aksiyalarning umumiy soni Qonuning 37 modda bilan belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda Jamiyat olishi mumkin bo‘lgan aksiyalarning sonidan ortiq bo‘lsa, aksiyadorlardan arizada ko‘rsatilgan talablarga mutanosib ravishda aksiyalar olinadi. | 7.5.6. Каждый акционер – владелец акций определенных типов, о приобретении которых принято решение, вправе продать указанные акции, а Общество обязано приобрести их. В случае если общее количество акций, в отношении которых поступили заявления акционеров об их приобретении Обществом, превышает количество акций, которое может быть приобретено Обществом с учетом ограничений, установленных статьей 37 Закона, акции приобретаются у акционеров пропорционально заявленным требованиям. |
| 7.5.7. Aksiyalar olinadigan muddat boshlani-shiga kechi bilan o‘n kun qolganda Jamiyat muayyan turdagi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarni Jamiyat tomonidan aksiyalar olinishi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali xabardor etishi shart. Bildirishda mazkur Ustavning 7.4.4-bandida ko‘rsatib o‘tilgan ma'lumotlar bo‘lishi lozim. | 7.5.7. Не позднее, чем за десять дней до начала срока, в течение которого осуществляется приобретение акций, Общество обязано посредством публикации в средствах массовой информации и размещения на своем официальном веб-сайте уведомить акционеров – владельцев акций определенных типов о приобретении Обществом акций. Уведомление должно содержать сведения, указанные в пункте 7.4.4. настоящего Устава. |
| 7.5.8. Jamiyat tasarrufiga o‘tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo‘yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi. | 7.5.8. Акции, поступившие в распоряжение Общества, не предоставляют права голоса, не учитываются при подсчете голосов, по ним не начисляются дивиденды. |

| | |
|---|---|
| 7.5.9. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Jamiyat tasarrufiga oʻtgan aksiyalar ular Jamiyat tasarrufiga oʻtgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizasiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishi lozim. Koʻrsatilgan muddatda realizasiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak. | 7.5.9. Акции, поступившие в распоряжение Общества в целях их последующей перепродажи, должны быть реализованы не позднее одного года с момента их поступления в распоряжение Общества, в противном случае Общее собрание акционеров должно принять решение об уменьшении Уставного фонда Общества. Акции, не реализованные в указанный срок, подлежат аннулированию. |
| 7.5.10. Jamiyat tomonidan oʻz aksiyalarining olinishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan boʻlsa, mustaqil ravishda yoki qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi. | 7.5.10. Приобретение Обществом собственных акций производится самостоятельно или через профессиональных участников рынка ценных бумаг, если иное не установлено законодательством. |
| 7.5.11. Jamiyat oʻzi chiqargan aksiyalar boʻyicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek oʻzi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas. | 7.5.11. Общество не вправе совершать сделки с выпущенными им акциями с условием их обратного выкупа, а также передавать выпущенные им акции в доверительное управление. |
| **8. Aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari** | **8. Права и обязанности акционеров** |
| 8.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:<br>- tegishli Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;<br>- depo hisobvaragʻidan oʻziga taalluqli koʻchirma olish;<br>- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;<br>- Jamiyat tugatilgan taqdirda oʻzlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;<br>- Jamiyatning moliya-xoʻjalik faoliyati natijalari toʻgʻrisida toʻliq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;<br>- olgan dividendini erkin tasarruf etish;<br>- qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda oʻz huquqlarini himoya qilish;<br>- oʻziga etkazilgan zararning oʻrni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;<br>- oʻz manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;<br>- qimmatli qogʻozlarni olishda zarar koʻrish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan | 8.1. Акционеры Общества имеют право на:<br>- включение их в реестр акционеров Общества;<br>- получение в отношении себя выписки со счета депо;<br>- получение части прибыли Общества в виде дивидендов;<br>- получение части имущества в случае ликвидации Общества в соответствии с принадлежащей им долей;<br>- участие в управлении Обществом посредством голосования на Общих собраниях акционеров;<br>- получение в установленном порядке полной и достоверной информации о результатах финансово-хозяйственной деятельности Общества;<br>- свободное распоряжение полученным дивидендом;<br>- защиту своих прав в уполномоченном государственном органе по регулированию рынка ценных бумаг, а также в суде;<br>- требование возмещения причиненных им убытков в установленном порядке;<br>- объединение в ассоциации и другие негосударственные некоммерческие организации с целью предоставления и защиты своих интересов; |

| | |
|---|---|
| bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish huquqiga ega;<br>- boshqa aksiyadorlar va Jamiyatning roziligisiz ularga tegishli aksiyalarni tasarrufdan chiqarish;<br>- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda aksiyalarni qaytarib sotib olish talabi. | - страхование рисков, связанных с возможными убытками, в том числе упущенной выгоды при приобретении ценных бумаг,<br>- отчуждение принадлежащих им акций без согласия других акционеров и Общества;<br>- требование выкупа акций в случаях, предусмотренных законодательством. |
| Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va mazkur Ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. | Акционеры могут иметь и иные права в соответствии с законодательством и настоящим Уставом. |
| 8.2. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim. | 8.2. Осуществление прав акционером Общества не должно нарушать права и охраняемые законом интересы других акционеров Общества. |
| 8.3. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni – mazkur aksiyalar egasini Qonunida belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo‘yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi. | 8.3. Установление ограничения на отчуждение акций не лишает права акционера – владельца этих акций участвовать в управлении Обществом и получать дивиденды по ним в порядке, установленном законодательством. |
| 8.4. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:<br>- Jamiyatga zarar etkazilishi mumkin bo‘lgan hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;<br>- imkon qadar Jamiyat boshqa organlari tomonidan qarorlar qabul qilinishini cheklaydigan yoxud to‘sqinlik qiladigan harakatlar (harakatsizlik)ga yo‘l qo‘ymaslik, aksiyadorning qonunchilik bilan nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirish bundan mustasno;<br>- qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyalarni joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlar bilan nazarda tutilgan muddat, tartib va usullarda aksiyalarni to‘lash;<br>- Ustav talablari hamda Jamiyat boshqaruv organlari qarorlarini bajarish;<br>- aksiyador o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi investision vositachi o‘ziga oid ma'lumotlardagi o‘zgarishlar haqida o‘z vaqtida xabardor qilish. Aksiyador o‘ziga oid ma'lumotlar o‘zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga etkazilgan zarar uchun Markaziy depozitariy va aksiyadorning o‘z aksiyalariga bo‘lgan huquqlarini hisobga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi investision vositachi javobgar bo‘lmaydi;<br>- Jamiyat yoki uning faoliyati to‘g‘risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan | 8.4. Акционеры Общества обязаны:<br>- воздерживаться от действий, вследствие которых Обществу могут быть причинены убытки;<br>- при наличии возможности воздерживаться от действий (бездействий), ограничивающих либо препятствующих принятию органами управления Обществом решений, кроме случаев реализации акционером своих прав, предусмотренных законодательством;<br>- оплачивать акции и иные ценные бумаги в сроки, порядке и способами, предусмотренными законодательством, настоящим Уставом и решениями о размещении акций и иных ценных бумаг;<br>- выполнять требования Устава и решения органов управления Общества;<br>- своевременно информировать инвестиционного посредника, оказывающего услуги по учету прав на его акции, об изменениях своих данных. В случаях непредоставления акционером информации об изменении своих данных Центральный депозитарий ценных бумаг и инвестиционный посредник, оказывающий услуги по учету прав на его акции, не несут ответственности за причиненные акционеру в связи с этим убытки;<br>- не разглашать информацию об Обществе или его деятельности, составляющую |

| | |
|---|---|
| qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni saqlash;<br>- qonunchilik, mazkur Ustav hamda Jamiyatning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni amalga oshirish. | служебную, коммерческую или иную охраняемую законом тайну;<br>- осуществлять иные обязанности, предусмотренные законодательством, настоящим Уставом и внутренними документами Общества. |
| 8.5. Minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va konfidensial ma'lumotlarni, tijorat sirlarini foydalangan orqali Jamiyat boshqaruv organlari faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi kerak. | 8.5. Миноритарный акционер не должен препятствовать деятельности органов управления Общества путем необоснованного истребования документов и использования конфиденциальной информации, коммерческой тайны. |
| **9. Daromadi (foyda)ni taqsimlash, dividendlarni to‘lash va zararni qoplash** | **9. Распределение дохода (прибыли), выплата дивидендов и возмещение убытков** |
| 9.1. Soliqlar va majburiy to‘lovlar amalga oshirilganidan so‘ng Jamiyat tasarrufida qolgan daromad (foyda)ni taqsimlash Kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko‘ra aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. | 9.1. Распределение дохода (прибыли), остающейся в распоряжении Общества после уплаты налогов и обязательных платежей, осуществляется в соответствии решением Общего собрания акционеров на основании рекомендации Наблюдательного совета Общества. |
| 9.2. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. | 9.2. Дивидендом является часть чистой прибыли, распределяемая среди акционеров. |
| 9.3. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo‘yicha e'lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart. | 9.3. Общество обязано выплатить объявленные по каждому типу акций дивиденды. |
| 9.4. Dividend aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin. | 9.4. По решению Общего собрания акционеров дивиденд может выплачиваться денежными средствами или другими законными средствами платежа либо ценными бумагами Общества. |
| 9.5. Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. | 9.5. Дивиденд распределяется между акционерами пропорционально числу и типу принадлежащих им акций. |
| 9.6. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. | 9.6. Общество вправе по результатам первого квартала, полугодия, девяти месяцев финансового года и (или) по результатам финансового года принимать решения о выплате дивидендов по размещенным акциям. |
| Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin. | Решение Общества о выплате дивидендов по результатам первого квартала, полугодия и девяти месяцев финансового года может быть принято в течение трех месяцев после окончания соответствующего периода. |
| 9.7. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik | 9.7. Решение о выплате дивидендов, размере дивиденда, форме и порядке его выплаты по акциям принимается Общим собранием акционеров на основании рекомендации Наблюдательного совета, данных |

| | |
|---|---|
| xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. | финансовой отчетности в случае наличия аудиторского заключения о ее достоверности. Размер дивидендов не может быть больше рекомендованного Наблюдательным советом. В решении о выплате дивидендов должны быть указаны даты начала и окончания выплаты дивидендов. |
| 9.8. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi. | 9.8. Дивиденды выплачиваются из чистой прибыли, остающейся в распоряжении Общества, и (или) нераспределенной прибыли прошлых лет. |
| 9.9. Dividendlarni to‘lash Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi yoki investitsiya vositachilari orqali aksiyadorning mavjud bank hisobvarag‘iga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bunda Jamiyat aksiyadordan dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi arizani talab qilishga haqli emas. | 9.9. Выплата дивидендов осуществляется автоматически через Центральный депозитарий ценных бумаг или инвестиционных посредников на имеющийся банковский счет акционера в порядке, установленном актами законодательства. При этом акционерное общество не вправе требовать от акционера заявления о выплате дивидендов. |
| 9.10. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko‘ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag‘larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag‘iga o‘tkazib berishi shart. | 9.10. Общество обязано по письменному требованию акционера – нерезидента Республики Узбекистан произвести конвертацию в свободно конвертируемую валюту начисленных ему дивидендов, с переводом средств на банковский счет, представленный акционером-нерезидентом. |
| Jamiyat aksiyadorlarining reestridan olingan, Jamiyat tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma hamda Jamiyat buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana to‘g‘risidagi ma'lumotnomasi ayirboshlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. | Основанием для конвертации служат заверенные Обществом выписка из реестра акционеров Общества и справка бухгалтерии Общества о сумме начисленных дивидендов и дате их начисления. |
| 9.11. Aksiyadorlarga dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo‘yicha dividend olish huquqiga ega. | 9.11. На получение дивиденда имеют право лица, зафиксированные в реестре акционеров Общества, сформированном для проведения Общего собрания акционеров, на котором принято решение о выплате акционерам дивидендов. |
| 9.12. Dividendlar aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Jamiyatning aybi bilan to‘lanmagan taqdirda to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. | 9.12. В случае невыплаты по вине Общества дивидендов в установленные Общим собранием сроки, по невыплаченным (неполученным) дивидендам начисляется пеня, исходя из ставки рефинансирования, установленной Центральным банком Республики Узбекистан. |
| To‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to‘lanmagan | Размер пени, начисляемой по невыплаченным (неполученным) |

| | |
|---|---|
| (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak. | дивидендам, не должен превышать 50 процентов суммы невыплаченных (неполученным) дивидендов. |
| Aksiyador Jamiyat tomonidan hisoblangan dividendlar va penyalar to‘lanishini sud tartibida talab qilishga haqli. Aksiyadorning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda dividendlar Jamiyat tomonidan to‘lanmagan taqdirda, Jamiyatga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish yoki bankrot deb e'lon qilish tartib-taomili qo‘llaniladi. | Акционер вправе требовать выплаты начисленных Обществом дивидендов и пени в судебном порядке. В случае невыплаты Обществом дивидендов при удовлетворении судом требований акционера по отношению к Обществу применяется процедура устранения неплатежеспособности или объявления банкротом в порядке, установленном законодательством. |
| 9.13. Jamiyat:<br>- agar dividendlar to‘lanadigan paytda jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;<br>- agar jamiyat sof aktivlarining qiymati uning Ustav fondi va Zaxira fondi summasidan kam bo‘lsa, aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to‘lashga haqli emas. | 9.13. Общество не вправе выплачивать и принимать решения о выплате дивидендов по акциям в случаях:<br>- если на момент выплаты дивидендов имеются признаки банкротства или указанные признаки появятся у Общества в результате выплаты дивидендов;<br>- если стоимость чистых активов Общества меньше суммы его Уставного фонда и Резервного фонда. |
| Ushbu bandida ko‘rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyador-larga to‘lashi shart. | По прекращении указанных настоящим пунктом обстоятельств Общество обязано выплатить акционерам начисленные дивиденды. |
| 9.14. Jamiyat dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi. Jamiyat to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qiladi. | 9.14. Общество объявляет размер дивидендов без учета налогов с них. Общество публикует данные о размере выплачиваемых дивидендов на официальных веб-сайтах уполномоченного государственного органа по регулированию рынка ценных бумаг и Общества в сроки, установленные законодательством. |
| 9.15. Jamiyat faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan zararlarni to‘lash (qoplash) Zaxira fondi hisobiga amalga oshiriladi. Zararlarni to‘lash (qoplash) uchun Zaxira fondi mablag‘lari etishmagan taqdirda, zararlar aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining qarori asosida Jamiyatning qonunchilik bilan yo‘l qo‘yiladigan boshqa mablag‘lari hisobiga to‘lanishi (qoplanishi) mumkin. | 9.15. Возмещение (покрытие) убытков Общества, возникших в ходе осуществления деятельности, осуществляется за счет Резервного фонда. В случае недостаточности средств Резервного фонда для возмещения (покрытие) убытков, на основании решения Общего собрания акционеров убытки могут возмещаться (покрываться) за счет других средств Общества, допускаемых законодательством. |
| **10. Zaxira va boshqa fondlar** | **10. Резервный фонд и иные фонды** |
| 10.1. Jamiyat Ustav fondining 15 (o‘n besh) foizi miqdorida Zaxira fondini tashkil etiladi. Jamiyatning Zaxira fondi Jamiyatning Ustav fondida belgilangan miqdorga etguniga qadar har yili sof foydadan kamida 5 (besh) foiz | 10.1. Общество создает Резервный фонд в размере 15 (пятнадцать) процентов от Уставного фонда. Резервный фонд Общества формируется путем обязательных ежегодных отчислений от чистой прибыли в |

| | |
|---|---|
| miqdorida majburiy ajratmalar o‘tkazish orqali shakllantiriladi. | размере не менее 5 (пять) процентов до достижения установленного размера. |
| 10.2. Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Jamiyatning Zaxira fondi Jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligasiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi. | 10.2. Резервный фонд предназначен для покрытия убытков, погашения корпоративных облигаций Общества, выплаты дивидендов по привилегированным акциям и выкупа акций Общества в случае отсутствия иных средств. |
| Jamiyatning Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas. | Резервный фонд не может быть использован для иных целей. |
| 10.3. Jamiyatning Zaxira fondi to‘laligicha yoki qisman sarflanib bo‘lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi. | 10.3. В случае полного или частичного использования средств, Резервный фонд формируется путем обязательных отчисления до достижения установленного размера. |
| 10.4. Jamiyat boshqa maqsadli fondlarni tashkil etishga haqli. Fondarning maqsadi, miqdori, tashkil qilish manbalari va foydalanish tartibi aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadi. | 10.4. Общество вправе создавать и другие целевые фонды. Назначение, размеры, источники образования и порядок использования фондов определяются Общим собранием акционеров. |
| **11. Jamiyatni boshqarish va Jamiyat faoliyatini nazorat qilish** | **11. Управление Обществом и контроль за деятельностью Общества** |
| 11.1. Jamiyatni boshqarish qonunchilik, mazkur Ustav hamda Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. | 11.1. Управление Обществом и контроль за деятельностью Общества осуществляется в соответствии с законодательством, настоящим Уставом и внутренними документами Общества. |
| 11.2. Jamiyatni boshqarish aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi hamda Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.<br>**Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi** – Jamiyat boshqaruvining oliy organi.<br>**Kuzatuv kengashi** – Jamiyat faoliyatining umumiy boshqaruvini amalga oshiruvchi Jamiyatning boshqaruv organi, aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilish bundan mustasno.<br>**Bosh direktori** – Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi, aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno. | 11.2. Управление Обществом осуществляют Общее собрание акционеров, Наблюдательный совет и Генеральный директор.<br>**Общее собрание акционеров** – высший орган управления Общества.<br>**Наблюдательный совет** – орган управления Обществом, осуществляющий общее руководство деятельностью Общества, за исключением решения вопросов, отнесенных к компетенции Общего собрания акционеров.<br>**Генеральный директор** – единоличный исполнительный орган, осуществляющий руководство текущей деятельностью Общества, за исключением вопросов, отнесенных к компетенции Общего собрания акционеров или Наблюдательного совета. |
| 11.3. **Ichki audit xizmati** – Kuzatuvi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan Jamiyatning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linmasi. | 11.3. **Служба внутреннего аудита** - структурное подразделение Общества, осуществляющее внутренний аудит, создаваемое решением Наблюдательного совета. |
| 11.4. Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish va unga xulosalarni berish Jamiyat bilan tuzilgan shartnoma asosida Jamiyat | 11.4. Проверку финансово-хозяйственной деятельности Общества и выдачу ему заключения осуществляет на основании |

| | |
|---|---|
| vakolatli organ tomonidan belgilangan **auditorlik tashkiloti** amalga oshiradi. | заключенного с Обществом договора **аудиторская организация**, определенная уполномоченным органом Общества. |
| **11.1. Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi** | **11.1. Общее собрание акционеров** |
| 11.1.1. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir. | 11.1.1. Общее собрание акционеров является высшим органом управления Общества. |
| 11.1.2. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi o'z ishini qonunchilik, mazkur Ustavi va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomi asosida amalga oshiradi. | 11.1.2. Общее собрание акционеров осуществляет свою деятельность на основании законодательства, настоящего Устава и положения об Общем собрании акционеров, утвержденного Общим собранием акционеров. |
| 11.1.3. Jamiyat har yili aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. | 11.1.3. Общество обязано ежегодно проводить Общее собрание акционеров (годовое Общее собрание акционеров). |
| 11.1.4. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. | 11.1.4. Годовое Общее собрание акционеров проводится не позднее чем через шесть месяцев после окончания финансового года. |
| Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi masalalar hal etiladi, Jamiyatning yillik hisoboti, Bosh direktori va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi. | На годовом Общем собрании акционеров решаются вопросы об избрании Наблюдательного совета , рассматривается годовой отчёт Общества, отчёты Генерального директора и Наблюдательного совета о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества, и иные документы, предусмотренные законодательством. |
| Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga, foydani taqsimlash hamda Kuzatuv kengashi va Taftishchisiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar (Umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatishga haqli. | Акционеры (акционер), являющиеся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Общества, в срок не позднее девяноста дней после окончания финансового года Общества, вправе вносить предложения по повестке дня, распределению прибыли, кандидатурам в члены органов управления и контроля, с возможностью их замены до проведения Общего собрания акционеров. |
| 11.1.5. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ili-shidan tashqari o'tkaziladigan Umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir. | 11.1.5. Общие собрания акционеров, проводимые помимо годового, являются внеочередными. |
| Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi. | Внеочередное Общее собрание акционеров проводится по решению Наблюдательного совета на основании его собственной инициативы, а также акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Общества на дату предъявления письменного требования. |
| 11.1.6. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish chog'ida Umumiy yig'ilishda, kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va | 11.1.6. При проведении Общего собрания акционеров могут использоваться информационно-коммуникационные |

| | |
|---|---|
| ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini beradigan axborot-kommunikasiya texnologiya-laridan foydalanilishi mumkin. | технологии, позволяющие обеспечивать возможность регистрации для дистанционного участия в общем собрании, обсуждении вопросов повестки дня и принятии решений по вопросам, поставленным на голосование. |
| 11.1.7. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:<br>- Jamiyat Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash, Jamiyat Ustavga Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;<br>- Jamiyatni qayta tashkil etish;<br>- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;<br>- Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;<br>- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;<br>- Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;<br>- o'z aksiyalarini olish;<br>- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi, Kuzatuv kengashi, Bosh direktori, Ichki audit xizmati va Sanoq komissiyasi to'g'risidagi ularning faoliyat tartibini, huquq va majburiyatlarini, shuningdek Jamiyatning mazkur organlari tomonidan qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilovchi nizomlarni tasdiqlash;<br>- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini hamda Bosh direktori va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari tasdiqlash;<br>- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;<br>- Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini va Taftishchisining xulosalarini eshitish; | 11.1.7. К компетенции Общего собрания акционеров относятся:<br>- внесение изменений и дополнений в Устав Общества или утверждение Устава Общества в новой редакции, кроме вопросов о внесении изменений и дополнений в Устав Общества, связанных с увеличением уставного фонда Общества и уменьшением количества объявленных акций Общества;<br>- реорганизация Общества;<br>- ликвидация Общества, назначение ликвидатора и утверждение промежуточного и окончательного ликвидационных балансов;<br>- определение количественного состава Наблюдательного совета, избрание его членов и досрочное прекращение их полномочий;<br>- определение предельного размера объявленных акций;<br>- уменьшение Уставного фонда Общества;<br>- приобретение собственных акций;<br>- утверждение организационной структуры Общества;<br>- утверждение положений об Общем собрании акционеров, о Наблюдательном совете, о Генеральном директоре, о Службе внутреннего аудита и Счетной комиссии, устанавливающие порядок деятельности, права и обязанности, а также процедуру принятия решений указанными органами Общества;<br>- утверждение годового отчета Общества, стратегии развития Общества на среднесрочный и долгосрочный периоды с определением её конкретных сроков, исходя из основных направлений и цели деятельности Общества, а также утверждение отчётов Генерального директора и Наблюдательного совета о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества;<br>- распределение прибыли и убытков Общества;<br>- заслушивание отчетов Наблюдательного совета по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению |

| | |
|---|---|
| - imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida Qonunda va mazkur Ustavda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;<br>- aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;<br>- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;<br>- Bosh direktorini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish,<br>- Bosh direktori bilan tuzilgan shartnomani amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- Bosh direktoriga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalar eng yuqori miqdorlarini belgilash;<br>- Qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- Jamiyat ichki nazorat to‘g‘risidagi, dividend siyosati to‘g‘risidagi va manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;<br>- Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash;<br>- homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) doirasini belgilash;<br>- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish. | установленных законодатель-ством требований по управлению Обществом;<br>- принятие решения о неприменении преимущественного права, предусмот-ренного Законом и настоящим Уставом;<br>- утверждение регламента Общего собрания акционеров;<br>- дробление и консолидация акций;<br>- избрание (назначение) Генерального директора, досрочное прекращение его полномочий;<br>- принятие решения о возможности продления срока, перезаключения или прекращения (расторжения) договора с Генеральным директором;<br>- установление предельных размеров выплачиваемых Генеральному директору вознаграждений и (или) компенсаций;<br>- принятие решения о совершении Обществом сделок в случаях, предусмотренных Законом;<br>- принятие решения об определении аудиторской организации для проведения обязательной аудиторской проверки, о предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора;<br>- утверждение положений о внутреннем контроле, о дивидендной политике, о порядке действий при конфликте интересов;<br>- определение сделок, относящихся к текущей хозяйственной деятельности Общества;<br>- определение предела оказания (получения) благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи;<br>- решение иных вопросов в соответствии с законодательством. |
| Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bosh direktori hal qilishi uchun berilishi mumkin emas. | Вопросы, отнесенные к компетенции Общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение Генерального директора. |
| Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas. | Вопросы, отнесенные к компетенции Общего собрания акционеров, не могут быть переданы на решение Наблюдательного совета. |
| 11.1.8. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishida ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha Jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo‘lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega. | 11.1.8. Правом голоса на Общем собрании акционеров по вопросам, поставленным на голосование, обладают акционеры – владельцы простых акций Общества. |
| 11.1.9. Ovozga qo‘yilgan masala bo‘yicha aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining qarori, agar Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan | 11.1.9. Решение Общего собрания акционеров по вопросу, поставленному на голосование, принимается большинством |

| | |
|---|---|
| bo'lsa, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi. | голосов акционеров – владельцев голосующих акций Общества (простым большинством), принимающих участие в собрании, если иное не установлено Законом. |
| 11.1.10. Quyidagi masalalari bo'yicha:<br>- Jamiyat Ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash, Jamiyat Ustavga Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;<br>- Jamiyatni qayta tashkil etish;<br>- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;<br>- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;<br>- Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;<br>- Qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtdan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi. | 11.1.10. Решение по вопросам:<br>- внесения изменений и дополнений в Устав Общества или утверждение Устава Общества в новой редакции, кроме вопросов о внесении изменении и дополнении в Устав Общества, связанных с увеличением уставного фонда Общества и уменьшением количества объявленных акций Общества;<br>- реорганизации Общества;<br>- ликвидации Общества, назначения ликвидатора и утверждения промежуточного и окончательного ликвидационного баланса;<br>- определения предельного размера объявленных акций;<br>- заслушивание отчетов Наблюдательного совета Общества по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Обществом;<br>- совершения крупных сделок, предусмотренных Законом,принимается Общим собранием акционеров большинством в три четверти голосов акционеров – владельцев голосующих акций, принимающих участие в Общем собрании акционеров (квалифицированным большинством). |
| 11.1.11. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas. | 11.1.11. Общее собрание акционеров не вправе принимать решение по вопросам, не включенным в повестку дня собрания, а также вносить изменения в повестку дня. |
| 11.1.12. Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir. | 11.1.12. Акционер вправе обжаловать в суд решение, принятое Общим собранием акционеров, в случае, если он не принимал участие в Общем собрании акционеров по уважительной причине или голосовал против принятия такого решения. |
| 11.1.13. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini kun tartibiga masalalar kiritishga taklif ko'rib chiqish, uni chaqirish, shuningdek aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini olib borish tartibi bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilish tartiblari Qonun muvofiq Umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomda belgilanadi. | 11.1.13. Порядок рассмотрения предложения в повестку дня, созыва, а также принятия Общим собранием акционеров решения по порядку ведения Общего собрания акционеров устанавливается положением об Общем собрании акционеров, утвержденным Общим собранием акционеров, в соответствии с Законом. |
| 11.1.14. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi | 11.1.14. Дата и порядок проведения Общего собрания акционеров, порядок сообщения |

| | |
|---|---|
| haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi. | акционерам о его проведении, перечень предоставляемых акционерам материалов (информации) при подготовке к проведению Общего собрания акционеров устанав-ливаются Наблюдательным советом. |
| 11.1.15. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog‘i bilan o‘ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi. | 11.1.15. Сообщение о проведении общего собрания акционеров публикуется на Едином портале корпоративной информации, на официальном веб-сайте общества и в средствах массовой информации, а также направляется акционерам по электронной почте не позднее чем за двадцать один день, но не ранее чем за тридцать дней до даты проведения общего собрания акционеров. |
| 11.1.16. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi, shuningdek Kuzatuv kengashi nomzodlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning Ustaviga kiritiladigan o‘zgartish va qo‘shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi hamda Jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasi va kun tartibi yuzasidan boshqa zarur ma'lumotlar, shu jumladan Kuzatuv kengashining Umumiy yig‘ilish kun tartibidagi masala bo‘yicha pozisiyasi kiradi. | 11.1.16. К информации (материалам), подлежащей предоставлению акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, относятся годовой отчет Общества и аудиторской организации по результатам проверки годовой финансово-хозяйственной деятельности общества, сведения о кандидатах в члены Наблюдательного совета, проект изменений и дополнений, вносимых в Устав Общества, или проект Устава Общества в новой редакции, а также стратегия развития Общества на среднесрочный и долгосрочный период и иная необходимая информация по повестке дня, в том числе, позиция Наблюдательного совета относительно повестки дня общего собрания. |
| Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda aksiyadorlarga etilishi majburiy bo‘lgan qo‘shimcha axborotning (materiallarning) ro‘yxati qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin. | Перечень дополнительной информации (материалов), обязательной для предоставления акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, может быть установлен уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг. |
| 11.1.17. Jamiyat aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishida Bosh direktori, Kuzatuv kengashining a’zolarigamukofot va kompensasiyalari miqdorini hamda taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning Jamiyat dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi (zarurat tug‘ilganda sof foydaning muayyan qismini Jamiyatni rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishi) oshkor etilishini ta'minlaydi. | 11.1.17. Общество обеспечивает раскрытие на Общем собрании акционеров информацию о размере вознаграждений и компенсаций Генеральному директору и членам Наблюдательного совета, о распределении чистой прибыли, размере дивидендов, с обоснованием предлагаемого размера, оценки их соответствия принятой в Обществе дивидендной политики (в случае необходимости, пояснения и экономические обоснования объемов направления |

| | |
|---|---|
| | определенной части чистой прибыли на нужды развития Общества). |
| 11.1.18. Ovozlarni sanab chiqish, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etishi uchun aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun Kuzatuv kengashi tomonidan **Sanoq komissiyasi** tuzilib, uning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. | 11.1.18. Для подсчета голосов, регистрации акционеров для участия в Общем собрании акционеров, а также выдачи бюллетеней для голосования Наблюдательным советом создается **Счетная комиссия**, количественный и персональный состав которой утверждается Общим собранием акционеров. |
| Sanoq komissiyasi aksiyadorlarning Uumumiy yig'ilishida kvorum bor yoki yo'qligini aniqlaydi, Umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqlarining aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalarni tushuntiradi, ovozga qo'yiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntiradi, ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda ishtirok etish huquqlarini ta'minlaydi, ovozlarni sanab chiqadi va ovoz berish yakunlarini chiqaradi, ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, ovoz berish byulletenlarini Jamiyatning arxiviga topshiradi hamda Umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi shaxsga shunday shaxs hisobidan o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkonini beradi. | Счетная комиссия определяет наличие кворума Общего собрания акционеров, разъясняет вопросы, возникающие в связи с реализацией акционерами (их представителями) права голоса на Общем собрании, разъясняет порядок голосования по вопросам, выносимым на голосование, обеспечивает установленный порядок голосования и права акционеров на участие в голосовании, подсчитывает голоса и подводит итоги голосования, составляет протокол об итогах голосования, передает в архив Общества бюллетени для голосования, а также предоставляет лицу, принимавшему участие в Общем собрании акционеров, возможность произведения за счет такого лица копии заполненного им бюллетеня. |
| 11.1.19. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi. | 11.1.19. Право на участие в Общем собрании акционеров имеют акционеры, зафиксированные в реестре акционеров Общества, сформированном за три рабочих дня до даты проведения Общего собрания акционеров. |
| Jamiyat aksiyadorning talabiga ko'ra aksiyadorga u aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart. | По требованию акционера Общество обязано предоставить ему информацию о включении его в реестр акционеров Общества, сформированный для проведения Общего собрания акционеров. |
| 11.1.20. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. | 11.1.20. Право на участие в Общем собрании акционеров осуществляется акционером лично или через своего представителя. |
| Aksiyador aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir. | Акционер вправе в любое время заменить своего представителя на Общем собрании акционеров или лично принять участие в нем. |
| 11.1.21. Agar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan | 11.1.21. Общее собрание акционеров правомочно (имеет кворум), если на момент окончания регистрации для участия в Общем собрании акционеров зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие |

| | |
|---|---|
| aksiyadorlar (ularning vakillari) roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa, aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi vakolatli (kvorumga ega) boʻladi.<br>Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigʻilishi Jamiyat aksiyadorlari umumiy yigʻilishining raisini saylashga haqli. | в совокупности более чем пятьюдесятью процентами голосов размещенных голосующих акций Общества.<br>Общее собрание акционеров Общества вправе избрать Председателя Общего собрания акционеров Общества. |
| Agar aksiyadorlarning oʻtkazilmay qolgan yigʻilishi oʻrniga chaqirilgan takroriy Umumiy yigʻilishida ishtirok etish uchun roʻyxatdan oʻtkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan koʻproq ovoziga ega boʻlgan aksiyadorlar (ularning vakillari) roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa, aksiyadorlarning takroriy Umumiy yigʻilishi vakolatli boʻladi. | Повторное Общее собрание акционеров, созванное взамен несостоявшегося, правомочно, если на момент окончания регистрации для участия в нем зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие в совокупности более чем сорока процентами голосов размещенных голосующих акций Общества. |
| 11.1.22. Aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishida ovoz berish «jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz» prinsipi boʻyicha amalga oshiriladi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash boʻyicha kumulyativ ovoz berishni oʻtkazish hollari bundan mustasno. | 11.1.22. Голосование на Общем собрании акционеров осуществляется по принципу «одна голосующая акция общества – один голос», за исключением случаев проведения кумулятивного голосования по выборам членов Наблюдательного совета Общества. |
| 11.1.23. Aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishida kun tartibidagi masalalar boʻyicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari orqali yoki axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladi. | 11.1.23. Голосование на общем собрании акционеров по вопросам повестки дня осуществляется бюллетенями для голосования или дистанционно с использованием информационно-коммуникационных технологий. |
| 11.1.24. Aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari Qonunda hamda mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartib va muddatlarda oʻttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi. | 11.1.24. Решения, принятые Общим собранием акционеров, в том числе итоги голосования доводятся до сведения акционеров в порядке и сроки, предусмотренные Законом и настоящим Уставом, но не позднее тридцати дней от даты принятия этих решений. |
| Aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish oʻtkazilgan Umumiy yigʻilishida oʻqib eshittiriladi, shuningdek aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari toʻgʻrisidagi hisobotni e'lon qilish orqali qonunchilikda belgilangan muddatda aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi. | Итоги голосования оглашаются на Общем собрании акционеров, в ходе которого проводилось голосование, а также доводятся до сведения акционеров после закрытия Общего собрания акционеров в срок, предусмотренный законодательством, путем опубликования отчета об итогах голосования. |
| **11.2. Kuzatuv kengashi** | **11.2. Наблюдательный совет** |
| 11.2.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar Umumiy yigʻilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno. | 11.2.1. Наблюдательный совет осуществляет общее руководство деятельностью Общества, за исключением решения вопросов, отнесенных к компетенции Общего собрания акционеров. |
| 11.2.2. Kuzatuv kengashi oʻz ishini qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyadorlarning | 11.2.2. Наблюдательный совет осуществляет свою деятельность на основании |

| | |
|---|---|
| Umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi nizom asosida amalga oshiradi. | законодательства, настоящего Устава и положения о Наблюдательном совете, утвержденного Общим собранием акционеров. |
| 11.2.3. Kuzatuv kengashi 4 (to’rtta) a’zodan iborat. | 11.2.3. Наблюдательный совет состоит из 4 (четырех) членов. |
| 11.2.4. Kuzatuv kengashining a'zolari Qonunda va mazkur Ustavda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. | 11.2.4. Члены Наблюдательного совета избираются Общим собранием акционеров в порядке, предусмотренном Законом и настоящим Уставом, сроком на три года. |
| 11.2.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin. | 11.2.5. Лица, избранные в состав Наблюдательного совета, могут переизбираться неограниченно. |
| Bosh direktori, uning sho‘'ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zolari Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas. | Генеральный директор, лица, работающие по трудовому договору (контракту) в его дочерних и зависимых хозяйственных обществах, и члены органов управления данных обществ не могут быть избраны в Наблюдательный совет. |
| Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi bo‘lishi mumkin emas. | Членами Наблюдательного совета не могут быть лица, работающие по трудовому договору (контракту) в Обществе. |
| Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan talablar mazkur Ustavi bilan yoki aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo‘yilishi mumkin. | Требования, предъявляемые к лицам, избираемым в состав Наблюдательного совета, могут устанавливаться настоящим Уставом или решением, утвержденным Общим собранием акционеров. |
| Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. | Выборы членов Наблюдательного совета осуществляются кумулятивным голосо-ванием. |
| Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqli. | При кумулятивном голосовании число голосов, принадлежащих каждому акционеру, умножается на число лиц, которые должны быть избраны в Наблюдательный совет, и акционер вправе отдать полученные таким образом голоса полностью за одного кандидата или распределить их между двумя и более кандидатами. |
| Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi. | Избранными в состав Наблюдательного совета считаются кандидаты, набравшие наибольшее число голосов. |
| Kuzatuv kengashining Raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. | Председатель Наблюдательного совета избирается членами Наблюдательного совета из его состава большинством голосов от общего числа членов Наблюдательного совета. |
| Kuzatuv kengashi o‘z Raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli. | Наблюдательный совет вправе переизбрать своего Председателя большинством голосов от общего числа членов Наблюдательного совета. |

| | |
|---|---|
| 11.2.6. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:<br>- Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Jamiyat Bosh direktorining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;<br>- Jamiyatning Ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirish;<br>- joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog‘ozlar savdolariga chiqarish) narxini qimmatli qog‘ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilash;<br>- Jamiyat Ustavga Jamiyatning Ustav fondini ko‘paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;<br>- aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash;<br>- emissiya risolasini tasdiqlash;<br>- korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish va tasdiqlash;<br>- qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va (yoki) risolaga o‘zgartirishlar va (yoki)<br>- qo‘shimchalar kiritish va qimmatli qog‘ozlar joylashtirilishi va muomalasini to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- Jamiyat o‘zi joylashtirgan aksiyalarni ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida qaror qabul qilish;<br>- korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;<br>- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, bundan Qonun 65-moddasining o‘n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;<br>- aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish va yig‘ilish | 11.2.6. К компетенции Наблюдательного совета относится:<br>- определение приоритетных направлений деятельности Общества с регулярным заслушиванием отчета Генерального директора о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества;<br>- увеличение Уставного фонда Общества путем размещения дополнительных акций;<br>- определение цены размещения (выставления на организованные торги ценными бумагами) акций при принятии решения о размещении акций;<br>- внесение изменений и дополнений в Устав Общества, связанных с увеличением Уставного фонда Общества и уменьшением количества объявленных акций Общества;<br>- утверждение решения о выпуске акций;<br>- утверждение проспекта эмиссии;<br>- принятие и утверждение решения о выпуске корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции;<br>- принятие решения о выпуске производных ценных бумаг;<br>- внесение изменений и (или) дополнений в ранее зарегистрированный выпуск ценных бумаг (в решение о выпуске и (или) их проспект), а также принятие решения о приостановлении размещения и обращения ценных бумаг в случае, предусмотренном законодательством;<br>- приобретение размещенных Обществом акций в целях их последующей перепродажи в установленном порядке;<br>- принятие решения о выкупе корпоративных облигаций Общества;<br>- созыв годовых и внеочередных Общих собраний акционеров, за исключением случаев, предусмотренных частью одиннадцатой статьи 65 Закона;<br>- подготовка повестки дня Общего собрания акционеров;<br>- определение даты, времени и места проведения Общего собрания акционеров;<br>- определение даты формирования реестра акционеров Общества для оповещения о проведении Общего собрания акционеров;<br>- внесение на решение Общего собрания акционеров вопросов по внесению изменений и дополнений в Устав Общества или утверждению Устава Общества в новой редакции, кроме вопросов о внесении |

| | |
|---|---|
| o'tkazish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;<br>- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash masalalarni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish, Jamiyat Ustavga Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;<br>- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;<br>- yillik biznes-rejasini tasdiqlash;<br>- Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, xodimlarini attestasiyadan o'tkazish, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi va qonun hujjatlarida belgilangan doirasida homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish;<br>- Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;<br>- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;<br>- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;<br>- Jamiyatning Zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;<br>- Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;<br>- Jamiyatning sho''ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;<br>- Qonunning 8 (Yirik bitimlar) va 9-boblarida (Affillangan shaxslar bilan bitimlar) va nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;<br>- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish; | изменений и дополнений в Устав Общества, связанных с увеличением Уставного фонда Общества и уменьшением количества объявленных акций Общества;<br>- организация установления рыночной стоимости имущества Общества;<br>- утверждение годового бизнес-плана Общества;<br>- создание Службы внутреннего аудита и назначение ее работников, проведение аттестации работников, а также ежеквартальное заслушивание ее отчетов;<br>- определение порядка, условий оказания (получения) и принятия решений о благотворительной (спонсорской) или безвозмездной помощи только в пределах, установленных Общим собранием акционеров и законодательством, с последующем размещением данного порядка на корпоративном веб-сайте Общества;<br>- доступ к любым документам, касающимся деятельности исполнительного органа Общества, и получение их от исполнительного органа для исполнения возложенных на Наблюдательный совет обязанностей. Полученные документы могут использоваться Наблюдательным советом и его членами исключительно в служебных целях;<br>- принятие решения о проведении аудиторской проверки (кроме обязательной аудиторской проверки), об определении аудиторской организации, предельном размере оплаты ее услуг и заключении (расторжении) с ней договора;<br>- дача рекомендаций по размеру дивиденда, форме и порядку его выплаты;<br>- использование Резервного и иных фондов Общества;<br>- создание филиалов и открытие представительств Общества;<br>- создание дочерних и зависимых хозяйственных Обществ;<br>- принятие решения о совершении сделок в случаях, предусмотренных главами 8 (Крупные сделки) и 9 (Сделки с аффилированными лицами) Закона;<br>- заключение сделок, связанных с участием Общества в коммерческих и некоммерческих организациях, в порядке, установленном законодательством; |

| | |
|---|---|
| - qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hamda Bosh direktori tomonidan Kuzatuv kengashi muhoqamasiga kiritilgan masalalarni hal etish. | - решение иных вопросов в соответствии с законодательством, а также вопросов, внесенных Генеральным директором на рассмотрение Наблюдательного совета. |
| Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga Qonun va mazkur Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin. | К компетенции Наблюдательного совета может быть отнесено решение и иных вопросов в соответствии с Законом и настоящим Уставом. |
| Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bosh direktoriga oʻtkazilishi mumkin emas. | Вопросы, отнесенные к компетенции Наблюдательного совета, не могут быть переданы на решение Генеральному директору. |
| 11.2.7. Kuzatuv kengashining Raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishida raislik qiladi, agar aksiyadorlarning umumiy yigʻilishi aksiyadorlar umumiy yigʻilishining raisini saylamagan boʻlsa. | 11.2.7. Председатель Наблюдательного совета организует его работу, созывает заседания Наблюдательного совета и председательствует на них, организует на заседаниях ведение протокола, председательствует на Общем собрании акционеров, если Общее собрание акционеров не избрало Председателя Общего собрания акционеров. |
| Kuzatuv kengashining Raisi boʻlmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi. | В случае отсутствия Председателя Наблюдательного совета, его функции осуществляет один из членов Наблюдательного совета. |
| 11.2.8. Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning oʻz tashabbusiga koʻra, Kuzatuv kengashi a]zosining, Bosh direktorining, shuningdek Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga koʻra chaqiriladi. | 11.2.8. Заседание Наблюдательного совета созывается Председателем Наблюдательного совета по его собственной инициативе, по требованию члена Наблюдательного совета, Генерального директора, а также по требованию акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем одного процентов голосующих акций Общества. |
| Kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta Kuzatuv kengashining boshqa a'zolariga habar berish yuli bilan chaqiriladi. Zaruriyat koʻra Kuzatuv kengashining majlislari chorakda bir martadan koʻproq oʻtkazilishi mumkin. | Председатель Наблюдательного совета не реже одного раза в квартал созывает заседание Наблюдательного совета путем уведомления остальных членов Наблюдательного совета. В случае необходимости заседания Наблюдательного совета могут проводиться более одного раза в квартал. |
| Kuyidagi masalalarni har chorakdagi majlislarda majburiy ravishda koʻrib chiqiladi:<br>- Jamiyatining yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi, rivojlantirish strategiyasiga erishish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi, Jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, bajarilgan ishlar va erishilgan koʻrsatkichlar toʻgʻrisida hamda boshqa ichki xujjatlarni yuzasidan Bosh direktori hisoboti; | На ежеквартальном заседании в обязательном порядке рассматриваются:<br>- отчет Генерального директора о ходе выполнения годового бизнес-плана Общества, о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Общества, о проделанной работе и достижении показателей деятельности предприятий, входящих в состав Общества, утвержденных их бизнес-планами, а также других внутренних документов Общества; |

| | |
|---|---|
| - Ichki audit xizmati hisoboti; | - отчет Службы внутреннего аудита; |
| Yangi uch yil muddatga saylangan Kuzatuv kengashining birinchi majlisi Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri tomonidan majlis chaqirilishi to‘g‘risidagi boshqa Kuzatuv kengashi a'zolarini xabardor qilish orqali chaqiriladi. Kuzatuv kengashining ushbu majlisida Kuzatuv kengashi Raisini saylash masalasi ko‘rishi shart. | Первое заседание Наблюдательного совета, избранного на новый трехгодичный срок, созывается одним из членов Наблюдательного совета путем уведомления о созыве заседания всех остальных членов Наблюдательного совета. На данном заседании Наблюдательного совета обязательно рассматривается вопрос избрания Председателя Наблюдательного совета. |
| Mazkur bandning birinchi xatboshida belgilangan shaxs tomonidan Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to‘g‘risidagi yozma talab kelib tushgan taqdirda, Kuzatuv kengashining Raisi kelib tushgan talabni ko‘rib chiqishga majbur. Kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish to‘g‘risidagi talabda majlis kun tartibiga kiritilishi kerak bo‘lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko‘rsatilgan holda ta'riflangan hamda majlis chaqirilishini talab qilayotgan shaxsning elektron manzili bo‘lishi kerak. Talab taqdim etgan sanadan e'tiboran o‘n kun ichida Kuzatuv kengashining Raisi majlisni chaqirish to‘g‘risida yoki majlisni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak. Chaqirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan taqdirda talabda ko‘rsatilgan masalani (masalalarni) ko‘rib chiqish bo‘yicha Kuzatuvi: kengashi majlisi Kuzatuv kengashi Raisi tomonidan tegishli talab olinganidan boshlab o‘ttiz ish kunidan kechiktirmay o‘tkazilishi kerak. Kuzatuv kengashi Raisi tomonidan majlisi chaqirish yoki bunday majlisni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori majlis chaqirishni talab qilgan shaxsga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay elektron manzil orqali yuboriladi. | В случае поступления письменного требования о созыве заседания Наблюдательного совета от лица, предусмотренного абзацем первым настоящего пункта, Председатель Наблюдательного совета обязан рассмотреть поступившее требование. В требовании о проведении заседания Наблюдательного совета должны быть сформулированы вопросы, подлежащие внесению в повестку дня заседания, с указанием мотивов их внесения, а также должен быть электронный адрес лица, требующего созыв заседания. В течение десяти дней от даты предъявления требования, Председатель Наблюдательного совета обязан принять решение о созыве либо об отказе от его созыва. В случае принятия решения о созыве, заседание Наблюдательного совета по рассмотрению вопроса (вопросов), содержащихся в требовании, должно быть проведено не позднее тридцати дней с момента получения Председателем Наблюдательного совета соответствующего требования. Решение Председателя Наблюдательного совета о созыве заседания или мотивированное решение об отказе от его созыва направляется по электронной почте лицу, требующему созыва такого заседания не позднее трех рабочих дней с момента принятия такого решения. |
| 11.2.9. Kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum aniqlanadi. Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning kamida etmish besh foizi ishtirok etganida kvorum hisoblanadi. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni mazkur bandida nazarda tutilgan miqdorning etmish besh foizidan kam bo‘lgan taqdirda, Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari | 11.2.9. Для проведения заседания Наблю-дательного совета определяется кворум. Кворум должен быть не менее семидесяти пяти процентов от числа избранных членов Наблюдательного совета. В случае, когда количество членов Наблюдательного совета становится менее семидесяти пяти процентов количества, предусмотренного настоящей главой Устава, Общество обязано созвать |

| | |
|---|---|
| Umumiy yig‘ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat Bosh direktorining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir. | внеочередное Общее собрание акционеров для избрания нового состава Наблюдательного совета. Оставшиеся члены Наблюдательного совета вправе принимать решение о созыве такого внеочередного Общего собрания акционеров, а также в случае досрочного прекращения полномочий Генерального директора назначить временно исполняющего его обязанности. |
| 11.2.10. Kuzatuv kengashi majlisi kvorumi mavjud bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi vakolatli bo‘ladi. Kuzatuv kengashi majlisini Kuzatuv kengashi Raisi, u bo‘lmagan taqdirda esa, uning Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri ochadi, majlis kun tartibini e'lon qiladi va majlisini olib boradi. Yig‘ilish kun tartibi masalasi bo‘yicha Kuzatuv kengashi Raisi, Kuzatuv kengashi a'zosi yoki kun tartibi masalasi bo‘yicha ma'ruza bilan taklif etilgan shaxs chiqishlari tinglanadi. Chiqishlarning natijalariga ko‘ra kun tartibidagi masala muhokama qilinadi. Ovozga qo‘yilgan savol bo‘yicha ovoz beriladi. Kuzatuv kengashi Raisi, u bo‘lmagan taqdirda esa, uning Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri ovozga qo‘yish natijalarini va qabul qilingan qarorni o‘qib eshittiradi. Kun tartibiga qo‘yilgan masalalar ko‘rib chiqilishi natijasiga ko‘ra, ko‘rsatilgan shaxs yig‘ilishni yopiq deb e'lon qiladi. | 11.2.10. В случае наличия кворума заседание Наблюдательного совета правомочно. Председатель Наблюдательного совета, а в случае его отсутствия – один из членов Наблюдательного совета, открывает заседание Наблюдательного совета, оглашает повестку дня заседания и ведет заседание. По вопросу повестки дня заседания заслушивают выступление Председателя Наблюдательного совета, члена Наблюдательного совета или приглашенного лица с докладом по вопросу повестки дня. По итогам выступления обсуждают вопрос повестки дня. Голосуют по вопросу, поставленному на голосование. Председатель Наблюдательного совета, а в случае его отсутствия – один из членов Наблюдательного совета, подводит итоги голосования и оглашает принятое решение. Указанное лицо по итогам рассмотрения вопросов по повестке дня объявляет заседание закрытым. |
| 11.2.11. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar Kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o‘tkazish tartibini belgilovchi Qonun, o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo‘ladi. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o‘z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi Raisi hal qiluvchi ovoziga huquqi ega. | 11.2.11. Решения на заседании Наблюдательного совета принимаются большинством голосов присутствующих, если Законом, определяющим порядок созыва и проведения заседания Наблюдательного совета, не предусмотрено иное. При решении вопросов на заседании Наблюдательного совета каждый член Наблюдательного совета обладает одним голосом. Передача голоса одним членом Наблюдательного совета другому члену Наблюдательного совета не допускается. В случае равенства голосов членов Наблюдательного совета Председатель Наблюдательного совета обладает правом решающего голоса. |
| Qonuni 18-moddasining ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida va mazkur Ustavi 6.4-bandida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha qaror Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. | Решение по вопросам, указанным в частях второй и четвертой статьи 18 Закона и в пункте 6.4. настоящего Устава, принимается Наблюдательным советом единогласно. |

| | |
|---|---|
| Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. | Решения Наблюдательного совета могут быть приняты заочным голосованием (опросным путем) всеми членами Наблюдательного совета единогласно. |
| 11.2.12. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng o‘n kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:<br>- majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;<br>- majlisda hozir bo‘lgan shaxslar;<br>- majlisning kun tartibi;<br>- ovoz berishga qo‘yilgan masalalar, ular yuzasidan o‘tkazilgan ovoz berish yakunlari;<br>- qabul qilingan qarorlar. | 11.2.12. На заседании Наблюдательного совета ведется протокол. Протокол заседания Наблюдательного совета составляется не позднее десяти дней после его проведения. В протоколе заседания указываются:<br>- дата, время и место его проведения;<br>- лица, присутствующие на заседании;<br>- повестка дня заседания;<br>- вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования по ним;<br>- принятые решения. |
| Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo‘ladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasidan ko‘chirmani Kuzatuv kengashi raisi yoki majlis kotibi imzolanadi, u majlis bayonnomasi ishonchliligi uchun javobgar bo‘ladi. | Протокол заседания Наблюдательного совета подписывается участвующими в заседании членами Наблюдательного совета, которые несут ответственность за правильность оформления протокола. Выписки из протокола подписывает Председатель Наблюдательного совета или секретарем заседания, который несет ответственность за её достоверность. |
| 11.2.13. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning Bosh direktoriga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishini chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Bosh direktoriga Kuzatuv kengashining majlisi o‘tkaziladigan kuni topshiriladi. | 11.2.13. Протокол заседания Наблюдательного совета передается для исполнения Генеральному директору в день его подписания. В случае принятия Наблюдательным советом решения о созыве Общего собрания акционеров информация о данном решении передается Генеральному директору в день проведения заседания Наблюдательного совета. |
| 11.2.14. Kuzatuv kengashining a'zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi lozim. | 11.2.14. Члены Наблюдательного совета при осуществлении своих прав и выполнении своих обязанностей должны действовать в интересах Общества и нести ответственность в установленном порядке. |
| Agar bir nechta shaxs javobgar bo‘lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo‘ladi. | В случае если ответственность несут несколько лиц, их ответственность перед Обществом является солидарной. |
| Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo‘lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo‘lmaydi, bundan Qonunning 90-moddasida belgilangan hollar mustasno. | Не несут ответственности члены Наблюдательного совета, не принимавшие участия в голосовании или голосовавшие против решения, которое повлекло причинение Обществу убытков, за исключением случаев, установленных статьей 90 Закона. |
| Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga etkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash | Общество или акционер (акционеры), являющийся владельцем не менее чем одного процента размещенных акций Общества, вправе обратиться в суд с иском к члену |

| | |
|---|---|
| to‘g‘risidagi da'vo bilan Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli. | Наблюдательного совета о возмещении убытков, причиненных Обществу. |
| **11.3. Bosh direktor** | **11.3. Генеральный директор** |
| 11.3.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi Jamiyat Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi. | 11.3.1. Руководство текущей деятельностью Общества осуществляется Генеральным директором. |
| 11.3.2. Bosh direktori o‘z ishini qonunchilik, mazkur Ustav va aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan Bosh direktori to‘g‘risidagi nizom asosida amalga oshiradi. | 11.3.2. Генеральный директор осуществляет свою деятельность на основании законодательства, настоящего Устава и положения о Генеральном директоре, утвержденного Общим собранием акционеров. |
| 11.3.3. Aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi tomonidan Bosh direktor saylanadi (tayinlanadi) va u bilan uch yil muddatga mehnat shartnoma (bundan buyon Shartnoma de)tuzadi va uning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi. | 11.3.3. Генеральный директор избирается (назначается) Общим собранием акционеров и с ним заключается трудовой договор (далее – Договор)сроком на три года с ежегодным принятием решения о возможности его продления или прекращения. |
| Bosh direktorining huquq va majburiyatlari tegishincha Qonun va boshqa qonun hujjatlarida, mazkur Ustavda hamda uning Jamiyat bilan tuzadigan shartnomada belgilanadi. | Права и обязанности Генерального директора определяются Законом и иными актами законодательства, Уставом Общества и договором, заключаемым им с Обществом. |
| Shartnoma Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashining Raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Bosh direktori bilan tuziladigan Shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha majburiyatlari hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning Umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak. Bosh direktoriga to‘lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi va Shartnomada belgilangan bo‘lishi kerak. | Договор от имени Общества подписывается Председателем Наблюдательного совета или лицом, уполномоченным Наблюдательным советом. В заключаемом Договоре с Генеральным директором должны быть предусмотрены его обязательства по повышению эффективности деятельности Общества и периодичность его отчетов перед Общим собранием акционеров и Наблюдательным советом о ходе выполнения годового бизнес-плана Общества. Размер вознаграждения Генерального директора находится в прямой зависимости от эффективности деятельности Общества и должны быть определены Договором. |
| Kuzatuv kengashi Bosh direktori bilan tuzilgan Shartnomani, agar u Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, Jamiyat Ustavini qo‘pol tarzda buzsa yoki uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar etkazilgan bo‘lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega. | Наблюдательный совет имеет право досрочного прекращения (расторжения) Договора с Генеральным директором, при нарушении им условий Договора, при совершении им грубых нарушений Устава Общества или причинении Обществу убытков его действиями (бездействием). |
| 11.3.4. Bosh direktori vazifalarini boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birgalikda egallab turishga faqat | 11.3.4. Совмещение функции Генерального директора с должностью в органах управления других организаций допускается только с согласия Наблюдательного совета. |

| | |
|---|---|
| Kuzatuv kengashining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. | |
| 11.3.5. Bosh direktorining vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno. | 11.3.5. К компетенции Генерального директора относятся все вопросы руководства текущей деятельностью Общества, за исключением вопросов, отнесенных к компетенции Общего собрания акционеров или Наблюдательного совета. |
| 11.3.6. Bosh direktorining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:<br>- o‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish;<br>- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalash;<br>- Jamiyat nomidan xujjatlarni imzolash;<br>- Jamiyat nomidan bitimlar, shartnomalar, kontraklar tuzish;<br>- Jamiyatning filialli ochish va filial yoki vakolatxona rahbarini tayinlash, Jamiyat filiali Nizomini tasdiqlash;<br>- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi doirasida bo‘linmalarni tasdiqlash, shtat jadvalini tasdiqlash va unga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;<br>- Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;<br>- qonun xujjatlarida chegaralarda Jamiyat mol-mulkini va pul mablag‘larini tasarruf etish;<br>- Jamiyat nomidan xarakat qilish uchun ishonchnomalar berish;<br>- banklarda hisob-kitob va boshqa raqamlar ochish;<br>- Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish;<br>- muovinlar orasida majburiyatlarni taqsimlash va xodimlar ish majburiyatlari bo‘yicha qo‘llanmalarni tasdiqlash;<br>- aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilmagan ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash;<br>- aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etish;<br>- Jamiyatni rivojlantirish borasidagi joriy va istiqbolli rejalari loyihasini tasdiqlash; | 11.3.6. К компетенции Генерального директора относятся:<br>- осуществление, в пределах своей компетенции, руководства текущей деятельностью Общества, обеспечивая его эффективную и устойчивую работу;<br>- без доверенности осуществлять действие от имени Общества, в том числе, представляет его интересы;<br>- подписание документов от имени Общества;<br>- заключение сделок, договоров и контрактов от имени Общества;<br>- открытие филиала и назначение руководителя филиала или представительства, утверждение Положения филиала Общества;<br>- утверждение подразделений в рамках организационной структуры Общества, утверждениештатного расписания и внесение в него соответствующих изменений;<br>- прием на работу сотрудников, заключение с ними и расторжения трудовых договоров, применение к ним меры дисциплинарной ответственности, обеспечение соблюдения сотрудниками трудовой и исполнительной дисциплины;<br>- распоряжение имуществом и денежными средствами в рамках законодательства;<br>- выдача доверенностей на осуществление действий от имени Общества;<br>- открытие в банках расчетных и иных счетов;<br>- издание обязательных для всех работников приказов и указаний;<br>- распределение своих функциональных обязанностей между своими заместителями и утверждение должностных инструкций работников;<br>- утверждение внутренних документов, не отнесенным к компетенции Общего собрания или Наблюдательного совета; |

| | |
|---|---|
| - Jamiyatning kelgusi yilga ma'muriy-xo‘jalik xarajatlari hisobini tayyorlash;<br>- undirib olinishidan umid bo‘lmagan 100 000 000 (yuz million) so‘m miqdoridan oshmagan qarzlarni Jamiyati balansidan chiqarish;<br>- Jamiyat faoliyati uchun qaror qabul qilingan sanadagi sof aktivlar qiymatining 15 foizidan ortiq bo‘lmagan qiymatdagi kredit liniyalari va boshqa majburiyatlarni jalb etish to‘g‘risida qaror qabul qilish.;<br>- ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar, ishlab chiqarish uskunalari, avtomototransport vositalarini hisobdan chiqarish hamda begonalashtirish bo‘yicha bitimlarni tuzish;<br>- muammoli kreditlar buyicha ta'minot sifatida qabul qilingan yoki majburiyatni bajarish maqsadida taklif qilinayotgan boshqa mulklarni Jamiyat balansiga qabul qilish va ushbu mulklarni mustaqil ravishda baxqolab realizasiya qlish (sotish);<br>- Jamiyat foydasini taqsimlash to‘g‘risidagi tavsiyani tayyorlash uchun Kuzatuv kengashiga taklifni kiritish;<br>- Jamiyat kundalik faoliyatini amalga oshirish va aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilmagan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish. | - организация выполнения решений Общего собрания акционеров и Наблюдательного совета;<br>- утверждение проектов текущих и перспективных планов развития Общества;<br>- подготовка сметы административно-хозяйственных расходов Общества на предстоящий год;<br>- списание с баланса Общества недостач, утраты материально-товарных ценностей, морально устаревшего оборудования и средств, а также безнадежной задолженности в размере не более 100 000 000 (ста миллионов) сум;<br>- принятие решения о привлечении для деятельности Общества кредитных линий и других обязательств стоимостью не более 15 % от стоимости чистых активов на дату принятия решения.<br>- списание и совершение сделок по отчуждению недвижимого имущества, ценных бумаг, производственного оборудования, автомототранспортных средств;<br>- принимать на баланс Общества иное имущество, принятое в качестве обеспечения по проблемным кредитам или предлагаемое в целях исполнения обязательств и осуществлять независимую оценку, а также реализацию (продажу) данного имущества;<br>- внесение Наблюдательному совету предложения по подготовке рекомендации о распределении прибыли Общества;<br>- осуществление текущей деятельности и принятие решений по вопросам, не отнесенным к компетенции Общего собрания, Наблюдательного совета. |
| 11.3.7. Bosh direktori quyidagilarga majbur:<br>- Jamiyatning ish rejalari, aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini ta'minlash;<br>- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejasi ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ular bajarilishini nazorat qilish;<br>- Jamiyatni malakali xodimlar bilan ta'minlash, xodimlarning bilimlari, malakasi, tajribasi va qoibiliyatlaridan samarali ravishda foydalanish bo‘yicha choralarni ko‘rish;<br>- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishi va mehnati muhofaza qilinishini ta'minlash; | 11.3.7. Генеральный директор обязан:<br>- организовывать исполнения планов работы, решений Общего собрания акционеров и Наблюдательного совета;<br>- руководить разработкой программ и бизнес-планов развития Общества, организовывать контроль их исполнения;<br>- принимать меры по обеспечению Общества квалифицированными кадрами, наилучшему использованию знаний, квалификации, опыта и способностей работников;<br>- обеспечивать соблюдение социальных гарантий и охрану труда работников Общества; |

| | |
|---|---|
| - Jamiyat va uning xodimlari tomonidan Jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash;<br>- Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tegishli holati va haqqoniyligi tashkil qilinishini ta'minlash;<br>- bir yilda bir marta aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishida yillik hisoboti to‘g‘risida taqdim etish;<br>- har chorakda Kuzatuv kengashi oldida Jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishining holati to‘g‘risida hisobot berish;<br>- tegishli organlar, aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalarida Jamiyatning har yilgi moliyaviy va boshqa hisoboti, faoliyati to‘g‘risidagi axborot va ma'lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etilishi va chop etilishini nazorat qilish;<br>- aksiyadorlarga qonunchilik bilan beriladigan huquqlarini himoya qilishini ta'minlash;<br>- ma'muriy xarajatlar hisobi tasdiqlangan mablag‘lar doirasida mol-mulkni sotib olish va xarajatlarni amalga oshirish;<br>- shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni ijrovini ta'milash;<br>- qonunchiliqqa va mazkur Ustavi muvofiq boshqa majburiyatlar. | - обеспечивать соблюдение Обществом и его работниками требований законодательства в деятельности Общества;<br>- обеспечивать организацию надлежащего состояния и достоверности бухгалтерского учета и отчетности в Обществе;<br>- ежегодно представлять Общему собранию акционеров годовой отчет Общества;<br>- ежеквартально отчитываться перед Наблюдательным советом о ходе выполнения годового бизнес-плана Общества;<br>- контролировать своевременное предоставление и опубликование ежегодной финансовой и иной отчетности, информации и сведений о деятельности Общества в соответствующие органы, акционерам, кредиторам и средства массовой информации;<br>- блюсти права акционеров, предоставляемых им законодательством;<br>- приобретать имущество и осуществлять затраты в рамках средств, утвержденных сметой административных расходов;<br>- обеспечивать выполнения договорных обязательств Общества;<br>- и другие обязанности в соответствии с законодательством и настоящим Уставом. |
| 11.3.8. Bosh direktori o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi lozim. | 11.3.8. Генеральный директор при осуществлении своих прав и выполнении своих обязанностей должен действовать в интересах Общества и нести ответственность в установленном порядке. |
| Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga etkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da'vo bilan Bosh direktori ustidan sudga murojaat qilishga haqli. | Общество или акционер (акционеры), являющийся владельцем не менее чем одного процента размещенных акций Общества, вправе обратиться в суд с иском к Генеральному директору о возмещении убытков, причиненных Обществу. |
| **11.4. Ichki audit xizmati** | **11.4. Служба внутреннего аудита** |
| 11.4.1. Ichki audit xizmati o’z faoliyatini qonunchilik, mazkur Ustav hamda Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. | 11.4.1. Служба внутреннего аудита осуществляет свою деятельность в соответствии с законодательством, настоящим Уставом и внутренними документами Общества. |
| 11.4.2. Ichki audit xizmati Bosh direktori, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo‘jalik | 11.4.2. Контроль и оценку работы Генерального директора, филиалов и представительств Общества путем проверок и мониторинга соблюдения ими законодательства, Устава Общества и других документов, обеспечения полноты и достоверности отражения данных в |

| | |
|---|---|
| operasiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Bosh direktori, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. | бухгалтерском учете и финансовой отчетности, установленных правил и процедур осуществления хозяйственных операций, сохранности активов, а также соблюдения установленных законодательством требований по управлению Обществом осуществляет Служба внутреннего аудита. |
| 11.4.3. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga hisobdordir. | 11.4.3. Служба внутреннего аудита подотчетна Наблюдательному совету. |
| **11.5. Auditorlik tashkiloti** | **11.5. Аудиторская организация** |
| 11.5.1. Auditorlik tashkiloti – auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lisenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxsdir. | 11.5.1. Аудиторская организация – юридическое лицо, имеющее лицензию на осуществление аудиторской деятельности. |
| 11.52. Jamiyat har yili yillik moliyaviy hisobotini tekshirish va tasdiqlash uchun Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan mulkiy manfaatdorlikda bo‘lmagan auditorlik tashkilotini jalb qilishi shart. | 11.5.2. Общество обязано привлечь для ежегодной проверки и подтверждения годовой финансовой отчетности аудиторскую организацию, не связанного имущественными интересами с Обществом или его акционерами. |
| 11.5.3. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi. | 11.5.3. Аудиторская организация осуществляет проверку финансово-хозяйственной деятельности Общества и предоставляет ему аудиторское заключение в установленном законодательством порядке в соответствии с заключенным с ней договором. |
| 11.5.4. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto‘g‘ri yakun bayon etilgan auditorlik xulosasi tuzganlik oqibatida etkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo‘ladi. | 11.5.4. Аудиторская организация несет ответственность перед Обществом за причинение ущерба вследствие составления аудиторского заключения, содержащего неправильный вывод о финансовой отчетности и иной финансовой информации Общества. |
| 11.5.5. Jamiyatda auditorlik tekshiruvi Markaziy bankning talabiga ko‘ra uning faoliyati bo‘yicha umumiy holda ham, ular faoliyatining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha ham o‘tkazilishi mumkin. | 11.5.5. Аудиторская проверка Общества может проводиться по требованию Центрального банка как в целом по их деятельности, так и по отдельным направлениям деятельности. |
| **12. Hisob va hisobot** | **12. Учет и отчетность** |
| 12.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart. | 12.1. Общество обязано вести бухгалтерский учет и предоставлять финансовую отчетность в порядке, установленном законодательством. |
| 12.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma'lumotlar o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Bosh direktori zimmasida bo‘ladi. | 12.2. Ответственность за организацию, состояние и достоверность бухгалтерского учета в Обществе, своевременное представление ежегодного отчета и другой финансовой отчетности в соответствующие органы, а также сведений о деятельности Общества, предоставляемых акционерам, кредиторам на официальном веб-сайте |

| | |
|---|---|
| | Общества и в средствах массовой информации, несет Генеральный директор. |
| 12.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida koʻrsatilgan va aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvaragʻidagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bogʻliq boʻlmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan boʻlishi kerak. | 12.3. Достоверность данных, содержащихся в финансовой отчетности Общества и предоставляемых Общему собранию акционеров, бухгалтерском балансе, счете прибыли и убытков, должна быть подтверждена аудиторской организацией, не связанной имущественными интересами с Обществом или его акционерами. |
| 12.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik Umumiy yigʻilishi oʻtkaziladigan sanadan oʻn kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim. | 12.4. Годовой отчет Общества подлежит предварительному утверждению Наблюдательным советом не позднее, чем за 10 дней до даты проведения годового Общего собрания акционеров. |
| **13. Hujjatlarni saqlash** | **13. Хранение документов** |
| 13.1. Jamiyat:<br>- Jamiyatning Ustavini, Ustavga kiritilgan, belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan oʻzgartish va qoʻshimchalarni, Jamiyatni tashkil etish toʻgʻrisidagi qarorni, Jamiyat davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi haqidagi guvohnomani;<br>- Jamiyatning oʻz balansidagi mol-mulkka boʻlgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarni;<br>- aksiyadorlarning Umumiy yigʻilishi va Jamiyatning boshqa boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanadigan hujjatlarni;<br>- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi haqidagi nizomni;<br>- Jamiyatning yillik hisobotini;<br>- emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni chiqarish toʻgʻrisidagi qarorlarni;<br>- aksiyalar emissiyasi risolasini;<br>- buxgalteriya hisobiga doir hujjatlarni;<br>- tegishli organlarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarni;<br>- Jamiyat aksiyadorlari Uumumiy yigʻilishlarining, Kuzatuv kengashi majlislarining bayonnomalarini, shuningdek Bosh direktorining buyruqlarini;<br>- Jamiyatning affillangan shaxslari roʻyxatlarini;<br>- Jamiyat aksiyadorlarining reestrlarini;<br>- Auditorlik tashkilotining xulosalari va hisobotlarini, nazorat qiluvchi davlat organlarining tekshiruvlari dalolatnomalarini saqlashi shart. | 13.1. Общество обязано хранить:<br>- Устав Общества, изменения и дополнения, внесенные в Устав, зарегистрированные в установленном порядке, решение о создании Общества, свидетельство о государственной регистрации Общества;<br>- документы, подтверждающие права Общества на имущество, находящееся на его балансе;<br>- документы, утверждаемые Общим собранием акционеров и иными органами управления Общества;<br>- положение о филиале,или представительстве Общества;<br>- годовой отчет Общества;<br>- решения о выпуске эмиссионных ценных бумаг;<br>- проспект эмиссии акций;<br>- документы бухгалтерского учета;<br>- финансовую отчетность, представляемую в соответствующие органы;<br>- протоколы Общих собраний акционеров, заседаний Наблюдательного совета, а также приказы Генерального директора;<br>- списки аффилированных лиц Общества;<br>- реестры акционеров Общества;<br>- заключения и отчеты аудиторской организации, акты проверок государственных контролирующих органов;<br>- иные документы в соответствии с законодательством и настоящим Уставом. |
| Jamiyat qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq boshqa hujjatlarni ham saqlashi shart. | Общество обязано хранить и иные документы в соответствии с законодательством и настоящим Уставом. |

| 14. Jamiyat va Jamiyatning affillangan shaxslari to‘g‘risidagi axborot | 14. Информация об Обществе и аффилированных лицах Общества |
|---|---|
| 14.1. Jamiyat mazkur Ustavining 13.1-bandida nazarda tutilgan hujjatlardan aksiyadorlarning foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, bundan buxgalteriya hisobiga doir hujjatlar, shuningdek Bosh direktorining buyruqlari va Jamiyat aksiyadorlarining reestri mustasno. | 14.1. Общество обеспечивает акционерам доступ к документам, предусмотренным пунктом 13.1. настоящего Устава, за исключением документов бухгалтерского учета, а также приказов Генерального директора и реестра акционеров Общества. |
| 14.2. Jamiyat aksiyadorning yozma talabiga ko‘ra unga mazkur Ustavda nazarda tutilgan hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini haq evaziga taqdim etishi shart. | 14.2. По письменному требованию акционера Общество обязано предоставить ему за плату копии документов, предусмотренных настоящим Уставом. |
| Haq miqdori Jamiyat tomonidan belgilanadi hamda hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini tayyorlash xarajatlarining qiymatidan va hujjatlarni pochta orqali jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlardan ortib ketmasligi kerak. | Размер платы устанавливается Обществом и не может превышать стоимости расходов на изготовление копий документов и оплаты расходов, связанных с направлением документов по почте. |
| Jamiyat so‘ralayotgan hujjatlarni aksiyadorga elektron shaklda taqdim qilishga haqli. | Общество вправе предоставить акционеру запрашиваемые документы в электронной форме. |
| 14.3. Jamiyat aksiyadorning yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga ko‘ra uch ish kuni ichida ularga Jamiyatning Ustavi, shu jumladan Ustavga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart. | 14.3. По требованию акционера или любого заинтересованного лица Общество обязано в течение трех рабочих дней предоставить им возможность ознакомиться с Уставом Общества, включая изменения и дополнения к нему. |
| Jamiyat aksiyadorning talabiga ko‘ra unga Jamiyat Ustavining ko‘chirma nusxasini berishi shart. | Общество обязано предоставить акционеру по его требованию копию Устава Общества. |
| 14.4. Aksiyador (aksiyadorlar) yirik bitimni yoki affillangan shaxs bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da'vo arizasini sudda ko‘rib chiqish chog‘ida jamiyatdan va guvohlardan sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan ishga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha hujjatlarni olishga haqli, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno. | 14.4. Акционер (акционеры) в ходе рассмотрения в суде искового заявления о признании крупной сделки или сделки с аффилированным лицом недействительной вправе получать от Общества и от свидетелей все документы, которые могут иметь отношение к рассматриваемому судом делу, за исключением документов, составляющих государственные секреты или иную охраняемую законом тайну. |
| 14.5. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda o‘zi to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilishni amalga oshirishi shart. | 14.5. Общество обязано осуществлять раскрытие информации об Обществе в порядке и сроки, установленные законодательством. |
| 14.6. Jamiyatning affillangan shaxsi qonunchilik muvofiq affillanganlik asoslari vujudga kelgan paytdan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay Jamiyatni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan ma'lumotlarni batafsil ko‘rsatgan holda o‘zining affillanganligi to‘g‘risida yozma shaklda xabardor qilishi shart. | 14.6. Аффилированное лицо Общества обязано в письменной форме уведомить Общество о своей аффилированности с подробным указанием сведений, установленных уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг, не позднее трех рабочих дней с момента возникновения оснований |

| | |
|---|---|
| | аффилированности в соответствии с Законом. |
| Agar affillangan shaxsning aybi bilan koʻrsatilgan axborot taqdim etilmaganligi yoki oʻz vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida Jamiyatga mulkiy zarar etkazilgan boʻlsa, affillangan shaxs Jamiyat oldida oʻzi etkazgan zarar miqdorida javobgar boʻladi. | Если в результате непредставления по вине аффилированного лица указанной информации или несвоевременного ее предоставления Обществу причинен имущественный ущерб, аффилированное лицо несет перед Обществом ответственность в размере причиненного ущерба. |
| 14.7. Jamiyat oʻzining affillangan shaxslari hisobini yuritishi va ular toʻgʻrisida qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisobot taqdim etishi shart. Jamiyat affillangan shaxslar roʻyxatini qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solish boʻyicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda har yili e'lon qilishi shart. | 14.7. Общество обязано вести учет его аффилированных лиц и представлять отчетность о них в соответствии с требованиями законодательства. Общество обязано ежегодно публиковать список аффилированных лиц в порядке и сроки, установленные уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг. |
| **15. Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish** | **15. Совершение крупных сделок** |
| 15.1. Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bogʻliq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki oʻzaro bogʻlangan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish toʻgʻrisidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining oʻn besh foizidan ortigʻini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xoʻjalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qogʻozlarni joylashtirish bilan bogʻliq boʻlgan bitimlar bundan mustasno. | 15.1. Крупной сделкой считается сделка (в том числе заем, кредит, залог, поручительство) или несколько взаимосвязанных сделок, связанных с приобретением или отчуждением либо возможностью отчуждения Обществом имущества, если балансовая стоимость отчуждаемого имущества или стоимость приобретаемого имущества составляет более пятнадцати процентов от размера чистых активов Общества на дату принятия решения о заключении таких сделок, за исключением сделок, совершаемых в процессе осуществления текущей хозяйственной деятельности, и сделок, связанных с размещением акций и иных ценных бумаг. |
| 15.2. Yirik bitim aksiyadorlarining Umumiy yigʻilishi yoki Kuzatuv kengashi ushbu bitim boʻyicha qaror qabul qilganidan keyin Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi. | 15.2. Крупная сделка совершается Генеральным директором после принятия Общим собранием акционеров или Наблюдательным советом решения по ней. |
| 15.3. Yirik bitim tuzishi toʻgʻrisidagi qaror Qonunga muvofiq qabul qilinadi. | 15.3. Решение по совершению крупной сделки принимается в соответствии с Законом. |
| **16. Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish** | **16. Совершение сделок с аффилированными лицами Общества** |
| 16.1. Jamiyat bitim tuzishidan manfaatdor shaxslar mazkur Jamiyatga nisbatan affillangan shaxslar deb e'tirof etiladi. | 16.1. Лицами, заинтересованными в совершении Обществом сделки, признаются |

| | |
|---|---|
| | лица, являющиеся аффилированными данному Обществу. |
| 16.2. Jamiyatning affillangan shaxslari deb qonunchilik muvofiq e'tirof etiladi. | 16.2. Аффилированными лицами Общества таковыми признаются в соответствии с законодательством. |
| 16.3. Affillangan shaxs Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to‘g‘risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlar berishi, ushbu shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni o‘rganishi va affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilish tartiblari, hamda affillangan shaxs bilan bitimlar tuzishdagi istisnolar qonunchilikda belgilanadi. | 16.3. При заключении Обществом сделок с аффилированными лицами порядок раскрытия информации о сделке с данными лицами, изучения предполагаемой сделки, одобрение сделки, исключения при совершении сделок с аффилированными лицами определяется законодательством. |
| 16.4. Agar affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitim ayni bir vaqtda yirik bitim bo‘lsa, bitimni tuzish tartibiga Qonunchda belgilangan yirik bitim tuzishga doir qoidalar qo‘llaniladi. | 16.4. В случае если сделка с аффилированным лицом одновременно является крупной сделкой, то к порядку ее совершения применяются положения заключения крупной сделки, установленные Законом. |
| **17. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish** | **17. Реорганизация и ликвидация Общества** |
| 17.1. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. | 17.1. Реорганизация общества осуществляется в форме слияния, присоединения, разделения, выделения и преобразования в случаях и порядке, предусмотренными законодательными актами. |
| 17.2. Jamiyat Umumiy yig‘ilish qaroriga yoki sudning qaroriga ko‘ra tugatilishi mumkin. | 17.2. Общество может ликвидироваться по решению Общего собрания акционеров либо по решению суда. |
| Jamiyatni tugatilishi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi. | Случаи и порядок ликвидации определяются законодательными актами. |
| **18. Yakuniy qoidalar** | **18. Заключительные положения** |
| 18.1. Mazkur Ustav O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. | 18.1. Настоящий Устав вступает в силу с момента его государственной регистрации. |
| 18.2. Mazkur Ustavda o‘z aksini topmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida bilan tartibga solinadi. | 18.2. Вопросы, не нашедшие отражения в настоящем Уставе, регулируются Законом Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» в новой редакции и иными нормативно-правовыми актами Республики Узбекистан. |
| 18.3. Agar qonunchilikda mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar bo‘lsa, qonunchilik qoidalari qo‘llaniladi. | 18.3. В случае если законодательством установлены иные положения, чем предусмотрено настоящим Уставом, то |

| | |
|---|---|
| | применяются положения законодательства. |

TA'SISCHILAR /
УЧРЕДИТЕЛИ:

LAGUTIN SERGEY VALENTINOVICH /
ЛАГУТИН СЕРГЕЙ ВАЛЕНТИНОВИЧ

___________________________________

POPOVA NINA ALEKSANDROVNA /
ПОПОВА НИНА АЛЕКСАНДРОВНА

___________________________________

RAYXERT NATALYA IVANOVNA /
РАЙХЕРТ НАТАЛЬЯ ИВАНОВНА

___________________________________

GULYAMOV RASULJAN TAXIROVICH /
ГУЛЯМОВ РАСУЛЖАН ТАХИРОВИЧ

___________________________________

LAGUTIN ARTYOM SERGEYEVICH /
ЛАГУТИН АРТЁМ СЕРГЕЕВИЧ

___________________________________